

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida  
UDK**

**BEKBOYEV BEKJON XOLBEKOVICH**

**FRANSUA MITTERAN: HAYOTI VA FAOLIYATI**

**5A220203 – Umumiy tarix mutaxassisligi**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat berildi.

Ilmiy rahbar:

dots.Rahmatullayev M.R. \_\_\_\_\_

«Umumiy tarix» kafedrasi mudiri

dots.To'raqulov B.T. \_\_\_\_\_

**M.O'.**

**SAMARQAND – 2011**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	3
<b>I BOB. FRANSUA MITTERANNING HAYOT YO'LI</b>	
1.1. Mitteranning yoshlik davri	10
1.2. Mitteran Ikkinchi jahon urushi yillarida	17
1.3. Mitteran siyosiy faoliyatining boshlanishi	25
<b>II BOB. FRANSUA MITTERAN YIRIK DAVLAT ARBOBI</b>	
2.1. Mitteran Frantsiya prezidenti	39
2.2. Mitteran davrida Frantsiyaning tashqi siyosati	50
2.3. Frantsiya-O'zbekiston munosabatlari	55
<b>XULOSA</b>	59
<b>FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	62
<b>ILOVA</b>	64

## KIRISH

Davlatimiz rahbarining yetuk va barkamol, har tomonlama rivojlangan kadrlar tayyorlash bo'yicha kiritayotgan takliflari, hukumatimizning bu borada qabul qilayotgan qaror va farmonlari hamda ko'rsatayotgan tashabbuslari, shak-shubhasiz Respublika kelajagini ta'minlash va uni dunyoning yetakchi davlatlari safidan o'rin olishi uchun qilinayotgan sa'y-harakatlari yo'lidagi bir qadamdir. Yurtboshimiz e'tirof etganidek, "Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi"<sup>1</sup>. Shunga ko'ra, kelajak davomchilari bo'lmish biz yoshlarning eng avvalo, o'z sohasining bilimdoni bo'lishini ta'minlash, u qaysi sohada bo'lmasin ishga mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatish lozimligini bugun demokratik tamoyillarga tayangan davlat va o'zligini tanigan xalq talab qilmoqda. Shu boisdan, biz tarixchilar oldida turgan hayotiy muhim vazifalardan biri kelajak avlod bilishi va o'rganishi lozim bo'lgan haqqoniy tarixni yoritishning zaruriyligidir. Shu jumladan, tarixni haqqoniy yoritish va buni nafaqat o'z tariximizga nisbatan, balki jahonda mavjud barcha millat va elatlar, davlatlar va siyosiy tuzilmalarga nisbatan ham qo'llash, ular tarixiga hurmat bilan qarash mamlakatimizning ilmiy sohaga e'tiborni kuchaytirish borasidagi tadbirlari qatoridan joy olgandir. "Bosib o'tgan yo'limizni va mamlakatimizning dunyoda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar jarayonida tutgan o'rnini xolis va tanqidiy baholar ekanmiz, biz erishgan yutuqlarimizga mahliyo bo'lib qolmasligimiz, ortiqcha havolanish va xotirjamlik tuyg'usiga berilmasligimiz zarur. Bugun biz

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1995 yil 23 fevral// Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. III jild. T., «O'zbekiston», 1996. 35-bet.

yashayotgan globallashuv va tobora kuchayib borayotgan raqobat asrida faqat chuqur islohotlar va modernizatsiya yo‘lidan tinimsiz va qat’iyat bilan rivojlanib borish natijasida o‘z oldimizga qo‘ygan istiqbolli maqsadlarga - taraqqiy topgan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darajasini ta'minlashga erisha olamiz”<sup>2</sup>.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Agar biz dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqa xalqlar ham ozodlik va mustaqillikni qo‘lga kiritish, milliy tiklanish, o‘z davlatchiligini, havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida ana shunday fazilatlarga tayanib va suyanib, barcha sohalarda-bu iqtisodiyot yoki ijtimoiy hayot bo‘ladimi, madaniyat, ta’lim-tarbiya va ilm-fan bo‘ladimi-o‘zining beqiyos ichki qobiliyat va salohiyatini ishga solish, uni ro‘yobga chiqarish hisobidan taraqqiyotga erishganini ko‘ramiz”.<sup>3</sup> Shunday ekan, bu dunyoda mavjud haqiqatlarni teran anglagan holda tarixni chuqur mushohadalashga o‘rganish, bu borada to‘g‘ri xulosa chiqarish har bir tarix fani rivojiga hissa qo‘shish istagida bo‘lgan mustaqil fikrlovchi shaxsning bosh maqsadiga aylanishi lozim.

### **1. Mavzuning dolzarbligi.**

XXI asr sari yetaklab kelgan jahon tarixining barcha yuz yilliklari orasida o‘tgan XX asr alohida o‘rin egallaydi. Aynan ushbu yuz yillikda iqtisodiyot va texnika, fan va madaniyat, musiqa va san’at misli ko‘rilmagan darajada rivoj topdiki, nafaqat bu, balki inqiloblar ikki jahon urushi hamda davlatlar va xalqaro munosabatlar qiyofasini o‘zgartirib yuborishga qodir muhim voqyeliklar bilan belgilandi. Bu siyosiy jarayonlar boshida turgan arboblar jamiyatni o‘z qarashlaridan kelib chiqib qayta qurishga intildilar. Ammo aynan xalq ommasi o‘z haq-huquqlari uchun munosib hayot va baxtli turmush uchun asosiy kurashchi bo‘ldilar. Xalq ommasi ishonchiga kirgan va uni o‘z ortidan ergashtira olgan

---

<sup>2</sup> Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2010 yil 9-dekabr.

<sup>3</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т. “Маънавият”, 2008. 26-бет.

davlat rahbarlari orasida nomi ming yillar davomida ham alohida ehtirom bilan tilga olinuvchi shaxslar yo'q emas. Ana shunday XX asrning zabardast arboblaridan biri beshinchi respublika prezidentlaridan bo'lgan Fransua Mitterandir.

Ma'lumki, Fransiya insoniyat tarixi sahifalariga o'zining munosib hissasini qo'shgan mamlakatlar qatoridan joy olgan. Bu mamlakatda bir necha yuz yilliklar davomida sodir bo'lgan tarixiy jarayonlar o'zining aniq, keng ko'lamli va klassik ko'rinishi bilan boshqa mamlakatlar uchun namuna vazifasini bajargan. Bu yerda ilk marotaba sotsialistik qarashlar paydo bo'lgan, boshqa YEvropa mamlakatlaridan farqli o'laroq, aynan Fransiyada XVIII asr burjua inqilobi natijasida feodal munosabatlar tugatilgan, ilk marotaba shu zaminda "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi" yuz ochgan. Demokratiya timsollaridan bo'lmish Fransiya siyosiy hayotida sezilarli iz qoldirgan siyosiy tuzilmalar uning shu vaqtga qadar to'rtta respublika bosqichidan o'tib beshinchi respublika davrida jadallik bilan rivojlanayotganligidir.

Beshinchi respublikaning to'rtinchi prezidenti bo'lgan va fransuz siyosiy arboblari ichida o'zining uzoq muddat-14 yillik boshqaruvini muvaffaqiyat bilan bosib o'tgan Fransua Mitteran hayot yo'li keyingi avlod vakillari uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'taydi. Bu shaxsning siyosiy faoliyatini o'rganish orqali o'tgan asrning 80-90 yillari birinchi yarmidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga ham baho berish, Fransiyada tadrijiy rivojlanishning o'ziga xos tomonlarini mufassal yoritish tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslab beradi.

## **2. Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari.**

1944 yilda fashistlar okkupasiyasidan ozodlikka chiqqan Fransiya davlatchilik tuzumida Vaqtli rejim (1944-1946 yy.), To'rtinchi (1946-1958 yy.) va Beshinchi respublikalar (1958 yildan hozirgi kungacha) bosqichlariga qadam-baqadam o'tib bordi. Ana shu yillarda o'zining siyosiy kar'yerasini boshlagan va qisqa muddatlar ichida Fransiya sotsialistik partiyasi lideriga aylanib, de Goll

hukumatiga qarshi chiqishga jur'at etgan, siyosiy bo'hronlar davrida va prezidentlik saylovlarida muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga qaramasdan o'z yo'nalishidan voz kechmagan Fransiyaning davlat va siyosiy arboblardan bo'lmish Fransua Mitteran hayot yo'lini yoritib berishdir.

Tadqiqot ishini yozish davomida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- Fransua Mitteranning yoshlik yillarini, uning siyosiy hayotdagi dastlabki faoliyatini yoritish;
- Ikkinchi jahon urushi arafasida va yillarida Fransiya siyosiy vaziyat, Vishi hukumati va Qarshilik harakati davomida Fransua Mitteran faoliyatiga baho berish;
- Mitteran Prezidentligi yillarida Fransiya ichki va tashqi siyosatining muhim aspektlarini o'rganish;
- O'zbekiston - Fransiya munosabatlari, bu munosabatlarni rivojlantirish yo'lidagi ikki davlat rahbarining sa'y - harakatlari haqida yakuniy xulosalar chiqarish va b.

### **3. Muammoning ishlab chiqilish darajasi.**

Garchi Fransiyaning ikkinchi jahon urushi yillaridan keyingi yillari tarixiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar va adabiyotlar muntazam yaratilib kelinayotgan bo'lsada, aynan Fransua Mitteran hayoti va faoliyati borasida yagona tizimga solingan asar yaratilgan emas. Shu boisdan, F. Mitteran hayot yo'liga yangicha yondashuvlar asosida Fransiyaning XX asr 80-90 yillar birinchi yarmidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotini yoritishga harakat qilinadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Fransiyaning atoqli siyosiy arboblardan biri bo'lmish Fransua Mitteran hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan alohida asar yaratilgan emas. Bu borada 1993 yilda "Voprosi istorii" jurnali sahifalarida N.V.Vasyutinskiyning "Fransua Mitteran" nomli maqolasi shu yo'lda tashlangan

dastlabki qadam bo'ldi<sup>4</sup>. Ushbu maqolada muallif ilk marotaba Gollizm konsepsiyasiga qarshi chiqqan va shu boisdan ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda rus va g'arb tarixshunosligida unga nisbatan salbiy munosabat bildirilgan asarlardan farqli ravishda, bu shaxs hayotiga yangicha yondashuvni amalga oshirdi. Garchi bu davrda Fransiyada Fransua Mitteran prezidentligi davom etayotgan bo'lsada, muallif o'z maqolasida Mitteran faoliyatini obyektiv baholashga harakat qilganligini ko'rish mumkin. Maqolada keltirilgan faktlarning aksariyat ko'pchiligi Fransiyada nashr qilingan va siyosiy arbob biograflari safidan joy olgan tarixchilar ilmiy izlanishlarini tarjima qilish hisobiga amalga oshirilgan.

Fransiyaning ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti masalalarini qamrab olgan turkum asarlar nashr qilindi. Jumladan, E.A.Arsenyev, Yu.V.Borisov, N.N.Molchanov, G.N.Ratiani, V.P.Smirnov, J.U.Ibrashev va boshqalar Fransiyada Beshinchi respublika o'rnatilgunga qadar bo'lgan davr tarixini yoritib bergan bo'lsalar, N.I.Kirey, I.A.Koloskov, Yu.I.Rubinskiy, V.G.Sirotkin, V.P.Slovenov, I.M.Bunin singari o'nlab mualliflar Beshinchi respublika tarixini yoritishga jazm etdilar. Biroq bu asarlarning aksariyati 80 yillar boshigacha bo'lgan tarixiy jarayonlarni aks ettiradi, shu boisdan, ular sahifalarida Fransua Mitteran siyosiy portretiga chizgilarni to'liq shaklda topish mumkin emas. Masalan G.N.Novikov ham o'zining "Gollizm posle de Gollya. Ideynaya i sotsialno politicheskaya evolyutsiya 1969-1981 gg." (Moskva, 1984) nomli asarida Fransua Mitteranning 1958, 1965, 1974, 1981 yillardagi prezidentlik saylovlari davridagi ishtiroki va gollizm konsepsiyasiga qarshi bo'lganligi haqidagi ma'lumotlarni keltirish bilan cheklanadi<sup>5</sup>. Tarixchi olim M.S. Arzakanyan o'zining "De Goll i gollisti na puti k vlasti" nomli tadqiqotida gollizm tarafdori sifatida Mitteran qarashlari bu

---

<sup>4</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран.-Вопросы истории, 1993, № 1. С.55-70.

<sup>5</sup> Новиков Г.Н. Голлизм после де Голля. Идеиная и социально политическая эволюция 1969-1981 гг. М., "Наука", 1984.

tamoyilga zid ekanligini ta'kidlash bilan cheklanadi<sup>6</sup>. Shuningdek, Sh.Ergasheva umumiy tahriri ostida Toshkentda 2007 yilda nashr qilingan "Vek XX: Politika Lyudi Sudbi" kitobida ham Mitteran shaxsi va faoliyati bilan bog'liq materiallarni topish mumkin, ammo bu ma'lumotlar qisqa va hali izchil tadqiq qilishni talab etadi.

Fransuz tarixshunosligida bu siyosiy arbob hayotini D.Lande, M. Pikar, F.-O. Gisbert, T.Desjardens, P.Faviyer singari tadqiqotchilar Mitteran biograflari sifatida uning hayot yo'lini yoritishga muvaffaq bo'ldilar.

Shu boisdan, mavjud tarixiy, ilmiy asarlarga tayangan holda prezident Mitteran hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berish va shu yo'l bilan uning keyingi avlod vakillari uchun o'z qarashlarida sobit, qat'iy xarakterli shaxs hayotini yoritishga jazm qilindi.

#### **4. Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**

Magistlik dissertatsiyasi uchun tanlab olingan mavzu o'zining ilmiy yangiligi bilan alohida ajralib turadi. Xususan, 1958 yildan e'tiboran Fransiyada o'rnatilgan yangi tartibot va gollizm tamoyillari asosida mamlakatda boshqaruv tizimining joriy etilishi XX asr 80-yillari boshida Mitteran hukumati amalga oshirgan tadbirlar sabab o'z yo'nalishini o'zgartirganligi va jamiyatni isloh etishda siyosiy boshqaruvning shu vaqtga qadar uchramagan shakli-sotsialistlar yetakchisining o'ng doiralar bilan murosa yo'lini tanlagan holda (bu hol 1986-1988 va 1993-1995 yillarda kuzatildi) harakat qilishi nafaqat Fransiyada, balki boshqa mamlakatlar siyosiy doiralarida ham katta qiziqishga sabab bo'lganligini e'tirof etish zarur. Shunga ko'ra, tadqiqot ishini yozish davomida Mitteran siyosiy faoliyatidagi bu jarayonlarga tarixchilar, ommaviy axborot vositalari tomonidan berilgan bahoga ham to'xtalib o'tish lozim.

#### **5. Tadqiqotning predmeti va ob'yekti.**

Tadqiqot ishi predmeti bevosita eng yangi zamon tarixi bo'lib, uning obyekti Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdan o'tgan asrning 90-yillarigacha bo'lgan

---

<sup>6</sup> Арзаканян М.Ц. Де Голль и голлисты на пути к власти. М., «Высшая школа», 1990.

bosqichida o'z tadrijiy rivojlanish yo'lini bosib o'tgan G'arbiy YYevropaning taraqqiy etgan davlatlaridan sanalmish Fransiya, bu mamlakat tarixida kuzatilgan siyosiy jarayonlarning bevosita ishtirokchilari bo'lmish davlat va jamiyat arboblari faoliyatini o'z ichiga qamrab oladi.

## **6. Ishning ilmiy – amaliy ahamiyati.**

Ushbu tadqiqot ishi kelajakda jahon tarixining muhim voqeliklaridan biri tarixini mufassal va yangicha yondashuvlar asosida tahlil qilib berishi ko'zda tutiladi. Shu yo'l bilan jahon tarixining dolzarb muammolaridan biriga xolisona baho berish, konkret davrni tahlil qilish orqali undan zaruriy xulosalar chiqarish muhimligini ham alohida ta'kidlash lozim.

## **I BOB. Fransua Mitteranning hayot yo'li**

### **1.1. Mitteranning yoshlik davri**

Elisey saroyiga kelgunga qadar, Frantsiya respublikasi prezidenti etib saylangan Fransua Mitteran baxtli bolalik va o'smirlilik davrini, shu bilan birga nemis asirligi va ozodlik sari intilishi, siyosiy hayotda yuksak pog'onalar bilan birga mag'lubiyat alamini ham totib ko'rdi. Uzoq yillar davomida u frantsuzlarning aksariyat ko'pchiligi uchun sirli shaxs sanalib kelindi.

Fransua Maris Arien Mari Mitteran 1916 yilning 26 oktyabrida Frantsiyaning janubi-g'arbidagi SHaranta deportamentiga qarashli Jarnak shaharchasida tavallud topdi. XVIII asr oxirida qurilgan va Mitteranlar oilasiga mansub bo'lgan ko'xna xonadon hozirga qadar saqlanib qolgan va bu erda prezidentning singlisi Kolett istiqomat qilib kelgan frantsuz prezidentining familiyasi, avlodlarga etkazilgan afsonaga ko'ra, "er o'rtasida" degan ma'noni anglatadi. V.N.Vasyutinskiyning fikricha, Mitteran nomi Frantsiya markazlaridan biri sanalgan Burj shahridan janubroqda joylashgan maydon, hudud bilan bog'liq bo'lgan<sup>7</sup>. Mazkur SHer va Oran daryolari vohasidagi Bryuer-Almishan u qadar kata bo'lmagan qishloq yonidagi joy bilan bog'liq degan, fikrlar mavjud. Filolog - olim A.Doze o'rta asrlarda don hajmini aniqlovchilar shunday atalgan degan fikrni ilgari suradi.

Ayrim frantsuz tadqiqotchilarining fikricha, prezidentning bobosi ingliz qirollik oilasi bilan uzoq qarindoshchilik rishtalari orqali bog'langan. Ammo, 1981 yilning mayida davlat rahbari etib tayinlangach, F.Mitteran "Buyuk Britaniya taxt vorisi shaxzoda CHARlz va malika Diananing nikoh marosimi chog'ida Angliyaning bo'lajak qiroli uning qarindoshi ekanligini oshkor qilishni istamadi"<sup>8</sup>.

---

<sup>7</sup> Вастпотинский В.Н. Франсуа Миттеран.-Вопросы истории, 1993, № 1, С. 55.

<sup>8</sup> Вастпотинский В.Н. Франсуа Миттеран.-Вопросы истории, 1993, № 1, С. 55.

Fransua Mitteranning yoshligi to'kin sochinlikda o'tdi. Bunga uning ona tomondan bobosining oilani moddiy jihatdan doimiy taminlab turganligi ham sabab bo'lgan. Yosh Fransua bobosi Lorren bilan ayniqsa iliq munosabatlarni o'rnatgan edi. U ushba qishloq burjua vakilidan A.Mitskevich ijodi haqida tanishishga muvassar bo'ladi.

Mitteranning yoshlik va o'smirlik yillari, dunyoqarashi va axloqiy tarbiyaning shakllanishi 8 nafar farzand va etim qolgan 2 jiyaniga rahnamolik qilayotgan ota-onasi ta'siri ostida kechdi. Bolalar tarbiyasiga oilada ma'naviy barkamollikni saqlashga harakat qilgan otasi sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Lurd shahrining muqaddas qadamjolariga uyushtiriladigan ziyorat kunlari otasi ko'psonli e'tiqodga hayrixox kishilar safida davolanish uchun kelgan og'ir bemorlarni ziyoratgohlar bo'ylab yuritardilar. Birinchi jahon urushi arafasida Fransua Mitteranning otasi Angulmdagi yirik va o'z davri uchun strategik jihatdan muhim bo'lgan temir yo'l vokzalining boshlig'i lavozimiga tayinlanadi. Garchi otasi biror bir siyosiy partiyaga a'zo bo'lmasada, 1924 yilda tashkil etilgan va katolik maktablari huquqlarini himoya qilishga qaratilgan Milliy katolik federatsiyasi faoliyatida ishtirok etadi.

Oilada bolalar tarbiyasi bilan onasi ham muntazam shug'ullanib turganligi Mitteranlar xonadonida qat'iy tartib va farzandlarning bir-biriga hurmat yuzasidan yuksak madaniyati shakllanganligi bilan belgilanadi. Onasi ham yaqin atrofdagi bemorlar holidan xabar olish bilan birga, farzandlari tahsil olayotgan Sent – Mari mahalliy boshlang'iya maktabiga ko'maklashib turardi.

Fransua yoshlik chog'laridanoq Balzak, F.SHatobrian, A.Lamartin, R.Bazen, J.Bernanos, P.Klodel, J. Romen, F.Mariak singari ijodkorlaryaratgan personajlarva voqealar bilan tanishib bordi.

Fransua Mitteran xristian talimotiga qat'iy amal qiluvchi oilada tarbiyalandi. Jarnakdagi boshlang'ich maktabni tugallagach o'z akalari singari 9 yoshida Angulemdagi Sen-pol katolik kollej internatiga tahsil olish uchun

jo'natiladi. Mazkur xususiy maktab oylashgan shahar XVI asr boshlarida vujudga kelgan bo'lib, Balzak e'tirof etishicha, yaxshi ta'lim beruvchi va shu xislatiga ko'ra yaqin atrofdagi shaharlardan ustun turuvchi manzilgoh sanalgan. Aytish kerakki bu maktabda Fransua Mitteran o'qishg qobiliyati o'rtacha bo'lgan o'quvchilar sirasiga kirgan. eng katta akasi Rober o'qishdagi ulkan muvaffaqiyatlari sabab Fransuani o'qishga hamda maktabning oldingi saflaridan joy olishga doimiy undab turardi. To'g'ri, o'qituvchilar Fransua Mitteranni tarix, geografiya, adabiyot va sheriyat, nutq madaniyati borasida bilimlari yuqori darajadagi tahsil oluvchi iqtidorli o'quvchi deb bilardilar.

Litsey o'quvchilarining qat'iy tartibga asoslangan, cherkov qonunlariga yo'g'rilgan bir xillikdan iborat hayoti bolalik orzu umidlarini ruyobga chiqarish imkonini bermasdi<sup>9</sup>.

Mitteran ana shunday sharoitda ham nafaqat Shaptobrian va Plober mutoalasiga beriladi, balki Spenoza, Dekart, Berksonning falsafiy asarlarini o'qish imkonini ham topishga harakat qilardi.

Fransua Mitteran yoshligidan o'zining kibriligi va mustaqil xarakteriligi bilan ajralib tursadabarcha bilan tez muloqotga kirishuvchi o'smir edi. Litsey miqiyosida o'tkazilgan futbol o'yinlarida doimo g'alaba va muvoffaqiyat sari intilgan bo'lajak prizident davlatning oliy rahbariga aylangan kezlarida ham sportga bo'lgan qiziqishini rivojlantirgan holda muntazam golf o'ynab kelardi.

Angulemdagi tahsil nihoyasiga etish arafasida o'qituvchilar va din murabbiylarining Fransua Mitteran borasidagi fikrlari ayri ko'rinish oladi. Uning falsafa, mustaqil fikrlashga bo'lgan intilishlarini ko'rgan o'qituvchilarcherkovda xizmat qilishi lozim degan xulosani bergan bo'lsalar, ikkinchi guruhdagilar unda adabiy qobiliyat yaxshi rivojlanganligini alohida qayd qilib o'tadilar. Bu erda unga falsafa fanlari bakalavri diplomi berilgach 1934 yilning oktyabrida 18 yoshida tahsilni davom ettirish uchun Parijga keldi. O'z davrining mashhur

---

<sup>9</sup> Восточинский В.Н. Франсуа Миттеран.-Вопросы истории, 1993, № 1, С. 57.

yozuvchilaridan F.Moriak bilan ota-onasining yo'llagan maktubi orqali tanishgan Fransua Sarbonna universitetining huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kirdi. Bu erda u o'zining iqtidori va qobiliyati bilan yuksak tafakkurli talabalar safidan joy oldi. Hali yosh bo'lishiga qaramay talaba yoshlar sardorlari safidan o'rin oldi. Ammo bu erda ko'p sonli katolik yoshlar tashkilotlaridan birortasiga a'zo bo'lmadi. U otasi singari "Konferans Sen-Vensan-de-pol" jamiyatining cherkov xayriya tadbirlarida muntazam ishtirok etib keldi. Mazkur tashkilotning a'zosi sifatida shanba kunlari tushdan so'ng ishchilar kvartallaridagi kambag'al oilalarga tashrif buyurib ba'zan shirin so'z, bazan esa kamtar xayriyalar: foydalanilgan kiyim kechak, yoki ko'mir olish uchun bepul talon ulushib chiqardi. Urush arafasidagi og'ir yillarda siyosiy fanlar maktabida o'z bilimini boyitish barobarida Parij ko'chalarida ishsizlarga ovqat tarqatish bilan ham shug'ullandi.

Yoshlik yillarida ehtiyojmandlarga hayrihohlik ruhini qaror toptirgan bo'lajak siyosiy arbob yillar o'tgani sayin ijtimoiy adolatning zarurligi haqidagi fikrlarni rivojlantirib bordi. Sarbonnada u huquqshunoslikdan tashqari filologiya fakultetida ham tahsil oldi. Ana shu erdagi o'qish davomida yaratgan o'zining dastlabki ilmiy maqolalarida ma'naviy qadriyatlar, davlat institutlari haqidagi fikrlar etakchi o'rin egallaydi. Davlat institutlari o'ningnazarida o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda eng avvalo shaxs haqida qayg'urushni birinchi o'ringa qo'ymog'i lozim. Talaba boshqacha fikrlar yurita olmasdi ham har yakshanba tongida cherkovga tashrif buyurgan Mitteran inson taqdirini yaxshilik bilan boyitishni o'z qarashlarining markazida deb bilardi. Injilda bu borada bildirilgan fikrlar keyinchalik uning odatiy so'zlashuv uslubidan joy oldi.

Frantsiya va Yevropaning boshqa davlatlari osmonida etilib kelayotgan yangi urush xavfi paydo bo'lgan kezlarda Mitteran voqealarning faol ishtirokchisi bo'lmadi. Prezident tarjimai holini yoritgan F.-O. Jisber ta'biri bilan aytganda urush arafasidagi yillar tarixi Mitteranni chetlab o'tdi. "Garchi u sul partiyalarga

nisbatan hayrihoh bo'lsada, siyosiy bo'ron girdobiga tushub qolishni istamadi", deb tariflaydi muallif<sup>10</sup>.

Shuningdek F.Mitteran talabalik yillarida frantsuz so'l intelegintsiyasi va yoshlarning diqqat markazida turganligiga qaramay sotsialistik g'oyalarga qiziqish bildirmadi.

1938 yilda universitetdagi tahsilni tugatish asnosida Mitteran bir varakayiga 3 diplom- Sarbonna universitetining huquqshunoslik va filologiya fakultetlari hamda siyosiy fanlar maktabini tugatganligi haqidagi hujjatni oldi. 22 yoshida siyosiy fanlar maktabining eng yaxshi bitiruvchisi sifatida bu vaqtda misli ko'rilmagan aktual mavzuda, gitlerchi qo'shinlarning Sudet viloyatini okkupatsiya qilinishi bilan bog'liq doktorlik dissertatsiyasini tayyorlay boshladi. Ushbu dissertatsiyaning asosiy vazifasi CHexoslovakiya misolida davlat suverenitetining huquqiy tamoyillarini aniqlab berish edi. Tez orada boshlangan urush ushbu rejani hayotga tadbiiq qilishga halal berdi.

1938 yilning aprelida Mitteranni zahira zobitlarini tayyorlash bo'yicha oliy kurslarga tahsil olishdan voz kechganligi munosabati bilan armiya saflariga chaqirdilar va 23 kolonial piyoda polkida u qator boshi (ryadovoy) etib tayinlandi. 1939 yilning 1 sentyabrida gitlerchilar Germaniyasining Polshaga hujumi ikkinchi jahon urushining boshlanib ketishiga olib keldi. Germaniyaning bunday noqonuniy hatti-harakatlari o'zini Polshani ittifoqchisi deb bilgan frantsuz hukumatining 3 sentyabr kuni Germaniyaga urush e'lon qilinishiga olib keldi.

Tarixiy faktlarga murojat qiladigan bo'lsak, 1938 yilning aprelida Leon Blyumning ikkinchi hukumati istefosidan so'ng e.Dalade bosh vazirlik kursisini egalladi. O'tmishda radikal partiyaning so'l qanoti liderlaridan bo'lgan, Xalq fronti tarafdori bo'lgan e Dalade o'z siyosatini endilikda o'ng pozitsiyaga burub yuboradi. Dalade hukumati tarkibiga kommunistlar ham sotsialistlar ham

---

<sup>10</sup> Вастютинский В.Н. Франсуа Миттеран.-Вопросы истории, 1993, № 1, С. 57.

kiritilmadi. Hukumatdagi demokratik alyans vetse raisi lavozimini Pol Reyno dastlab adliya, so'ng esa moliya vaziri sifatida egallagan bo'lsa, fashist agressorlari bilan yaqinlashishi tarafdori bo'lgan J.Bonne tashqi ishlar vaziri bo'ldi<sup>11</sup>.

Yangi hukumatning dastlabki amaliy qadamlari uning xalq fronti dasturini bajarish istagida emasligini ko'rsatdi. 1938 yildayoq hukumat nafaqat mamlakatdagi fashistlarga qarshi biror bir chora qo'lladi, balki, ularning bir qismini mahbuslikdan ozod ham qildi. Shu bilan birga tashqi siyosatda ikki xil yo'nalish uzil kesil shakllandi. Ulardan birinchi guruhdagilar Fashistlar Germaniyasini Frantsiyaning xavfli raqibi deb sanab Angliya va AQSH bilan ittifoqchilikda bo'lishni lozim deb hisoblagan bo'lsa, ikkinchi guruhdagilar Germaniya va Italiya singari fashistik davlatlar bilan yaqinlashish pozitsiyasini zo'r berib himoya qildilar.

Bu yo'nalish tarafdorlari Gitlerchilar Germaniyasiga SSSR bilan ittifoqchi bo'lgan taqdirda ham urush olib borib g'alaba qozonadigan bo'lsa, bu frantsuz burjuaziyasining halokatiga olib kelardi. Shu boisdan ular har qanday yo'l bilan Gitler bilan kelishib natsistlar rahbariga fashistik agressiyani SSSRga qarshi yo'naltirish uchun SHarqiy Yevropada erkin harakat qilishga imkon yaratish lozim degan qarorga keldilar. 1937 yilda Frantsuz armiyasining bosh inspektori lavozimini egallagan general Veygan o'z zobitlariga oshkora ravishda shunday degan edi: "Frantsiyaning vazifasi Germaniya va Italiyaga har tomonlama yon berish va shu yo'l bilan bu ikki davlatning ekspansionistik harakatini sharqqa yo'naltirishdir"<sup>12</sup>.

Shu maqsad yo'lida frantsuz hukumati 1938 yildagi sharmandali Myunxen shartnomasiga ham qarshilik ko'rsatmadilar, bilaks Frantsuz burjuaziyasining

---

<sup>11</sup> Смирнов В.П. Новейшая история Франции. 1918-1975. М.: "высшая школа", 1979. С.163.

<sup>12</sup> Советско-Французские отношения во время Великой Отечественной войны. 1941-1945 гг. М., 1959. С. 68.

barcha doiralari Myunxen kelishuvini tinchlik g'alabasi deb baholab, CHemberlin va Daladeni tinchlikni qaror toptiruvchilar sifatida ko'kka ko'tarib maqtadilar<sup>13</sup>.

Germaniya fashizmi bilan kelishishga muvaffaq bo'lgan Frantsuz hukumati boshqa fashistik davlatlar bilan ham munosabatlarni yaxshilashga urindi. 1938 yilning dekabrda Frantsiya Italiyaning Ifiopiyaning bosib olganligini rasman tan olgan bo'lsa, 1939 yilning fevralida Ispaniya Respublikasi bilan munosabatlarni uzgan Frantsuz hukumati general Franko hukumatiga ishonch bildirgan holda marshal Petenni elchi sifatida Ispaniyaga yo'lladi. Gitlerchilar Germaniyasining ittifoqchisi bo'lgan fashistik Italiya Frantsiya koloniyasi sanalmish Tunis va uning tarkibiga kiruvchi Frantsuz metropoliyalari – Korsika va Soboyaga davogar bo'lib chiqdi. Shu kunlarda Angliya va Frantsiya ikki davlatdan biriga hujam qilingan taqdirda ikkinchisining yordami haqidagi diplomatik notalarni almashdilar. Mazkur harbiy ittifoqqa muvofiq ular Polsha, Rumeniya, Gretsiya keyin esa Turkiya mustaqilligining kafolatchisi bo'lishlari lozim edi. 1939 yilning mayida frantsuz hukumati Polsha bilan alohida maxfiy protokol imzoladi. Unga ko'ra Polshaga nisbatan nemis agressiyasi yoki uning Dantsigdagi hayotiy manfaatlariga dahl qilingan taqdirda Frantsiya umumiy harbiy tayyorgarlik e'lon qilib, mobilizatsiyadan so'ng 15 chi kuni o'zining asosiy kuchlari bilan Germaniyaga qarshi harbiy harakatni boshlashi belgilandi<sup>14</sup>.

Shunga ko'ra Germaniyaning Polshaga hujumidan so'ng 3 sentyabrda Angliya va Frantsiya agressiv Germaniyaga qarshi urush e'lon qildilar.

Frantsiyaning Polsha – Frantsiya protokolida ko'rsatilgan majburiyati amalga oshirilmadi. Bu urushning birinchi bosqichi sanalgan “G'alati urush” bo'lib, 1939 yilning sentyabridan 1940 yilning mayigacha Frantsiya va Angliya hukumati Germaniyaga qarshi biror bir jiddiy harakatlarni amalga oshirmadilar.

---

<sup>13</sup> Кравченко Е.А. Народные фронт во Франции. М., 1972. С. 266.

<sup>14</sup> Смирнов В.П. Новейшая история Франции. 1918-1975. М.: “высшая школа”, 1979. С.176.

## 1.2. Mitteran ikkinchi jahon urushi yillarida

1939 yilda boshlangan ikkinchi jahon urushi va qariyb ikki hafta davomida Polshaning to'liq bosib olinishi G'arbning buyuk davlatlarini jiddiy xavotirga solmadi. Jumladan, frantsuz hukumati ham yuzaga kelgan xalqaro vaziyatni Germaniyaning "sharqqa yurishi" sifatida baholab "Majino liniyasi" buzilmas ekanligi haqidagi fikrlarida sobit turdilar. Polsha erlariga Germaniya qo'shinlari bostirib kirganidan so'ng 17 sentyabrda Sovet davlati ham Sovet-Polsha chegaralarini bosib o'tdi va G'arbiy Ukraina hamda G'arbiy Belorusiya hududlariga bostirib kirdi. 1939 yilning sentyabr oyi oxiri va oktyabr boshlarida estoniya, Latviya va Litva SSSR bilan o'zaro yordam haqidagi paktga imzo chekdilar. Biroq Sovet Ittifoqining Finlyandiya bilan shunday mazmundagi muzokaralari benatija tugadi va 1939 yilning 30 noyabrida tarixiy adabiyotlarga "Qishki urush" nomi bilan kirgan Sovet-fin urushi boshlandi. Ana shunday sharoitda Frantsiya va Angliya hukmron doiralari aksilsovet kayfiyatini yanada rivojlantirgan holda, Germaniyani SSSR bilan harbiy ziddiyatga unday boshladilar. Bundan tashqari, 1940 yilning boshlaridan "Finlyandiyaga yordam" shiori ostida ekspeditsion korpus tashkil etilib, u SSSRga qarshi harakatlarni olib bordi. Shu yilning 5 fevralida ingliz-frantsuz Oliy Ittifoqchilik Kengashi Norvegiya va SHvetsiya hududlari orqali Finlyandiyaga mazkur ekspeditsion korpusni yo'llash haqida qaror qabul qildi. Shu yo'l bilan SHvetsiya va Norvegiya ham bu ikkala davlat rahbarligi ostida urushga kirishi mo'ljallandi.

General Veygan rahbarligi ostidagi korpus 1940 yilning mart oyi o'rtalaridan SHimoldan Sovet Ittifoqini bombardimon qilishi lozim edi ammo "Qishki urush"ning tugashi munosabati bilan, 1940 yilning 12 martida Finlyandiya SSSR bilan tinchlik shartnomasiga imzo chekdi. O'nlar fikricha, aksilsovet intervensiyasini amalga oshirishda sust harakat qilgan Dalade

hukumati iste`foga chiqdi. Uning o`rniga o`nlar, radikallar va sotsialistlardan tashkil topgan Reyno hukumati qaror topdi<sup>15</sup>.

Mamlakat hukmron doiralari urushni o`zlari uchun foydali yakunlash niyatida harakat qilayotgan bir pallada urush boshlangach, elzasdagi tank qo`shinlari 5-armiyasi qo`mondoni etib tayinlangan de Goll boshchiligidagi kuchlar Frantsiya osmonida paydo bo`lishi muqarrar bo`lgan “qora bulutlar”ni haydash va mamlakat mudofaasini tashkil qilishni talab qila boshladilar. Shunga ko`ra, 1940 yilning yanvarida de Goll Frantsiyaning 80 nafar yirik harbiy va siyosiy arboblari memorandium yo`llab unda mavjud vaziyatning og`irligi va bunga qarshi choralar qo`llash kerakligi haqida ma`lum qildi<sup>16</sup>.

Zaruriy choralar quyidagi tartibda ko`rildi: nihoyat eski namunadagi 120 mashinadan iborat 1 ta tank diviziyasi shakllantirildi. Shu bilan bu boradagi ishlar nihoyaladi.

1940 yilning 10 mayida nemis fashist qo`shinlari G`arbiy frontda harbiy harakatlarni boshlab yubordilar. “Majino lineyasi” bo`ylab harakatlangan nemis qo`shinlari betaraf mamlakatlar- Belgiya, Gollandiya hudulariga bostirib kirdilar. “G`alati urush” yakunlandi.

Bu vaqtda harbiy jihatdan Germaniyadan ortda qolgan Frantsiyaning quruqlik qo`shinlari bu erda mavjud Belgiya va Gollandiya armiyalari, shuningdek, Britaniya ekspeditsion korpusi son jihatdan nemis qo`shinlaridan ustun bo`lsalarda bu kuchlarning betartib harakati nemislar muvaffaqiyatini ta`minladi. Germaniyaga nisbatan Frantsiyada tanklar ko`p bo`lsada, ular butun front bo`ylab tarqalgan edi.

Frantsuz Oliy qo`mondonligi birinchi jahon urushi davridan saqlanib kelinayotgan eskirgan tamoyillarga asir bo`lgan holda nemislar bosqinchiligi rejasini to`g`ri anglay olmadi. Belgiya va Gollandiyaning kapitulyatsiya qilinishi

---

<sup>15</sup> Смирнов В.П. Новейшая история Франции. 1918-1975. М.: “высшая школа”, 1979. С.182-183.

<sup>16</sup> Голь Шде. Военные мемуары. Том 1. Призыв. М., 1957. С. 58.

Belgiyaga yo'llangan frantsuz mudofa qo'shinlarining Dyunker oldida mag'lubiyatga uchrashi frantsuz hukmron doiralari orasida kuchli vahima uyg'otdi. Ular harbiy mag'lubiyat 1870 yil voqeasini qaytalaydi, degan xavotirni ma'lum qila boshladilar. Darhaqiqat, 1940 yilning 5 iyunida Dyunker operatsiyasini muvaffaqiyatli yakunlagan nemis qo'shinlari Parijga hujum boshladilar. Ispaniyadan mamlakatga qaytib kelgan marshal Peten va general Veygan poytaxtda tartibni saqlab turish maqsadida Ispaniyadan mamlakatga qaytib kelgan marshal Peten va general Veygan poytaxtda tartibni saqlab turish maqsadida frotidagi qo'shinlarni bu erga yo'llay boshladilar. General de Gollning guvohlik berishicha, "Peten urushni yakunlab tinchlik bitimini tuzish va zarur holda Ter Kommunaga qanday zarba bergan bo'lsa, xuddi shunday chora qo'llash istagida edi"<sup>17</sup>.

1940 yilning 10 iyunida Frantsiyaga yangi zarba berildi: o'ljani bo'lib olishga shoshilgan fashistik Italiya Frantsiyaga hujum qildi. Shu kuni Reyno hukumati Parijdan janubga, dastlab Tur shahriga, keyin esa Bordoga qochdi. Oliy Bosh qumondon Veygan hukumat fikrini so'rab ham o'tirmay Parijni ochiq, ya'ni mudofaa qilinmayotgan shahar deb e'lon qildi.

Tinchlik shartnomasini tuzishga uringan Veygan vazirlar kengashi majlisida chiqish qilib, Parijda "Kommunistik qo'zg'olon" boshlanganligini va Moris Torez prezident saroyida asosiy kursini egallab olganligi haqidagi yolg'on xabarni ma'lum qildi. Garchi bu provakatsiya tezda fosh bo'lgan bo'lsada, u o'z navbatida ministrarga kuchli ta'sir o'tkazdi. 1940 yilning 14 iyunida nemis fashist qo'shinlari Parijga bostirib kirdilar. Frantsuz hukmron doiralari qolgan qo'shinni SHimoliy afrikaga yo'llab, shu erdan turib urushni olib borish imkoniga ega bo'lsalarda, ular Gitler oldida taslim bo'lishni maqul ko'rdilar. Shunga ko'ra 16 iyunda Reyno istefo bergach marshal Peten bosh vazirlik

---

<sup>17</sup> Гольц Ш.де. Военные мемуары. Том 1. ... С. 100.

kursisini egalladi. U zudlik bilan Germaniya hukumatiga murojaat qilib, harbiy harakatlarni to'xtatishni va tinchlik shartlarini ma'lum qilishini so'radi.

1940 yilning 21 iyunida Kompen o'rmonida, muzeydan olib kelingan marshal Foshning shtab vagonida Germaniya bilan tinchlik muzokaralari boshlandi<sup>18</sup>. Bir ukndan so'ng Kompenda, 25 iyunda esa Rimda imzolangan Frantsiya-Germaniya va Frantsiya-Italiya sulh shartnomalaridan so'ng Frantsiya kapitulyatsiya qilindi va urushdan chiqdi. Bir necha hafta ichida Frantsiya Buyuk davlat safidan tushdi. Mamlakatning 3/2 qismi shu jumladan Parij nemislar tomonidan okkupatsiya qilindi. Uning janubiy qismi va koloniyalari Germaniyaga tobe Peten hukumati tomonidan nazorat qilinishi belgilandi. Peten hukumati qarorgohi erkin zonadagi Vishi shahri bo'lgani bois, u tarixiy adabiyotlarda Vishi hukumati nomi bilan ham ataladigan bo'ldi. O'z navbatida Frantsiya kapitulyatsiyasi amalda uchinchi respublika halokati ham edi<sup>19</sup>.

Bu davrdagi Fransua Mitteran faoliyatiga baho beradigan bo'lsak, 1939 yilning 3 sentyabrida, ya'ni frantsuz hukumati Germaniyaga urush e'lon qilgan pallada Mitteran xizmat qilayotgan polk Sidan hududiga joylashtirildi. Front chizig'iga yaqin hududda joylashgan frantsuz askarlari qariyb 1 yil mobaynida harakatsiz pozitsiyada turdilar. Biroq 1940 yilning mayida yaxshi qurollangan nemis bronetank diviziyasining hujumidan so'ng 14 iyunda Parij taslim bo'lgan kuni serjant Mitteran portlagan mina oskolkalaridan yaralanadi va Vitteledagi harbiy gospitalga joylashtiriladi. Tez orada bu shahar nemislar qo'liga o'tganligi bois gospitalda davolanayotgan yaradorlar va tibbiyot xodimlari nemislar qo'liga asir tushdi. 14 iyun janglarida ko'rsatgan jasorati uchun Fransua Mitteran kumush yulduzli "Harbiy xoch" mukofoti bilan taqdirlandi<sup>20</sup>.

Mitteran nemis asirligida bir yarim yil bo'ldi va shu vaqt oralig'ida uch marta asirlikdan qochishga harakat qildi. Va nihoyat 1941 yilning dekabr oyi

---

<sup>18</sup> Смирнов В.П. Новейшая история Франции. 1918-1975. ... С.188.

<sup>19</sup> Смирнов В.П. Новейшая история Франции. 1918-1975. ... С.198.

<sup>20</sup> Вастютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 58.

o'rtalarida frantsuz temir yo'lchilari yordamida akkupatsion zona orqali o'tib asirlikdan qutilishga muvaffaq bo'ldi.

1942 yilning yanvaridan apreliga qadar onasining do'sti yordami bilan Fransua Mitteran Vishi hukumatidagi harbiy asirlar ishlari bo'yicha Komissariat\* xizmatiga vaqtinchalik shartnoma asosida ishga kirdi. Bu unga birga xizmat qilgan do'stlari yordamida nemis lagerlaridan qochgan frantsuz asirlari va Qarshilik harakati ishtirokchilari uchun soxta hujjatlar tayyorlashda ishtirokchi bo'lish imkonini berdi. Bu vaqtda u asirlikdan qochgan Jan Russel, Maks Verenn va doktor Gay Frik bilan tanishdi va keyinchalik Frik ta'siri ostida u ham qarshilik harakatining ishtirokchilaridan biriga aylandi. 1942 yilning oxirida bosib olinmagan hududga nemislar bostirib kirdilar Mitteran 1943 yilning yanvarida Komissariatdagi ishini tark etdi.

1943 yilning qishida Vishi hukumati Mitteranni talabalar vakili sifatida "Frantsisk" ordeni bilan mukofotladi. Ba'zi bir tarixiy manbalarda bo'lajak prezidentning bu ordenni olishi borasida qarama-qarshi fikrlarni ko'rish mumkin. Shunga ko'ra ayrim mualliflar uni mazkur mukofotga loyiq deb topgan bo'lsada, amalda Mitteranga berilmagan degan fikrni yoqlasalar, ba'zi bir mualliflar fikricha qarshilik harakatidagi faoliyatini haspo'shlash maqsadida unga ordenni olishga buyruq berilgan<sup>21</sup>.

Bu yillarda Mitteran o'zi singari sobiq asirlardan tashkil topgan qarshilik harakatini yo'lga qo'yishga intildi. Bu harakat general Anri Jero bilan bog'liq bo'lib, 1943 yilning boshlarida mazkur shaxs bilan kelishgan holda Mitteran o'zi tashkil qilgan RNPG ni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yordam olib turdi. Ushbu tashkilot ham 1943 yil davomida asirlarga soxta hujjatlar tayyorlash barobarida Frantsiya uchun zaruriy ma'lumotlarni yig'ish bilan ham shug'ullandi.

---

\* Бу комиссарлик француз урушаётган томонлари ва миллий инқилоб кўнгилчилари легиони деб аталиб, бу ерда Ф.Миттеран ўзининг эътироф этишича озод француз кучлари учун айдоқчилик вазифасини ўтаган. Бу ерда Британия махфий хизмати айдоқчиси бўлган Фавр де Тиррен раҳбарлиги остида фаолият юритиб, бу шахснинг хатти-ҳаракатларини доимий кузатиб борган.

<sup>21</sup> Франсуа Миттеран // [www.famouspeoples.net](http://www.famouspeoples.net).14.03.2012.

Per de Benuvil ta`biri bilan aytganda, “Mitteran harbiy asirlar lagerlarida haqiqiy ayg’oqchilik ishini yo’lga qo’ydi”.

Fransua Mitteran haqidagi tarixiy ma`lumotlarni o’rganish jarayonida. Uning qarshilik harakati yillarida o’zini “Morland, Purgon, Monier, Larosh, kapitan Fransua, Arno va Albre” singari maxfiy ismlardan foydalanganligi haqidagi fikrlarga duch kelamiz.

1943 yilning fevralida tashkil etilgan maxfiy vatanparvarlik kayfiyatidagi harbiy asirlar milliy ittifoqi Mitteran uchun uning keyingi siyosiy ko’tarilishida o’ziga xos trampolin vazifasini o’tadi. Bu tashkilotga rahbarlik davomida u J.Mulen rahbarligi ostida Frantsiya hududida 1943 yilning maydan harakatlanayotgan Qarshilik harakati milliy kengashi bilan uzviy aloqalarni bog’ladi. 1943 yilning noyabrida Germaniyaning SD tashkiloti a`zolari kapitan Morlanni hibsga olish uchun Vishi hukumatiga qarshi hujum uyushtirdilar. Biroq bu vaqtda Parijda bo’lgan Mitteran do’stlari tomonidan ogohlantirilgach 15 noyabr kuni Lissandra samolyotida Londonga qochishga majbur bo’ladi. Londonda ham Morlan nomi nafaqat erkin Frantsiya markaziy razvetka byurosiga balki, shaxsan general SHarl de Gollga ham yaxshi tanish edi.

Fransua Mitteranning SHarl de Goll bilan ilk uchrashuvi 1943 yilning 2 dekabrda Jazoirda bo’lib o’tdi (Londondan so’ng Mitteran Jazoirga safar qilgan edi). General uchrashuv chog’ida Mitterandan harbiy asirlarning uchta asosiy assotsiatsiyasini shu jumladan kommunistlar tomonidan boshqarilayotgan guruhlarini harbiy asirlar milliy kengashiga birlashtirishini talab qildi. Biroq Mitteran bu talabni bajarishdan voz kechdi<sup>22</sup>.

Bu de Goll va Mitteran o’rtasida bir biriga nisbatan shaxsiy antipatiya va hatto ochiq dushmanlik kayfiyatini paydo bo’lishiga sabab bo’ldiki, bu holat keyinchalik doimiy takrorlanib turdi. Indamay o’ch olish Mitteran nomining

---

<sup>22</sup> Добрынин А.Ф. Сугубо доверительно. М.: “Автор”, 1997.С.96.

“Ozod qilish qaxramonlari” orden mukofotiga taqdim qilinganlar ro'yxatidan uning ismi sharifining o'chirilishi bilan bog'liq edi.

Urush yillari Mitteran shaxsiy hayotida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. U litseyda birga tahsil olgan Daniel Guz bilan uchrasha boshladi. 1944 yilning oktyabrida, Burgundiya ozod qilingandan bir necha kun o'tib, lotin kvartalining markazida joylashgan ko'hna Sen-Severen cherkovida Mitteran va Guzning nikoh marosimi bo'lib o'tdi. Ikkala yoshning nikohiga guvoh bo'lganlar orasida frantsuz qarshilik harakatining taniqli kurashchilari V.Frene va Ispaniyadagi internatsional brigada tarkibida kurash olib borgan, “Polkovnik Patris” nomi ostida shuxrat qozingan P.Pela va boshqalar bor edi. 1945 yilda Mitteranlar oilasida o'g'il farzand dunyoga keldi ammo zaruriy oziq ovqat va dori darmonlarning etishmaganligi sababli ko'p o'tmay u vafot etdi. Shunday bo'lsada, ikki farzand orqali Mitteran otalik baxtiga muyassar bo'ldi. Farzandlarning kattasi Jan Krestof 1947 yilda tavallud topgan bo'lib, Parijdagi taniqli litseylardan birida tahsilni yakunlagach, obruli xonadondan chiqqan ko'pgina yosh frantsuzlar singari o'z tahsilini Qo'shma SHtatlarda davom ettirdi va jurnalistik diplomini oldi. O'zining kasbiy faoliyatini otasining mavqeyiga qaramay Mabritaniyada Frans Press agentligining maxsus xizmatchisi sifatida boshladi.

1986 yilda 5 respublika tarixida shu vaqtga qadar kuzatilmagan voqeylik sodir bo'ldi. Fransua Mitteran o'g'lini Elisey saroyining Afrika ishlari bo'yicha devonxonasi maxsus maslahatchisi etib tayinladi. 5-Respublika tashkil etilgandan buyon tashqi siyosatning bu qismi prezidentlik faoliyatida alohida o'rin egallaydi.

Prezident Mitteranning kichik farzandi Jilber 1949 yilda tavallud topgan. U o'z tahsilini yakunlagach urushdan oldingi yillarda otasi tahsil olgan Parij universitetining huquqshunoslik fakultetida talabalarga dars berdi.

Mitteran shaxsini o'rgangan biograflarning aksariyati Mitteranning siyosiy faoliyatiga qaysidir ma'noda o'zining sotsialist turmush o'rtog'iga nisbatan so'l

qarashlari bilan rafiqasi ta`sir ko`rsatgan. “Agar men hayotda biror bir narsaga erishgan bo`lsam, bu sotsialistik g`oyalar tasirida ulg`aygan ikki farzandga berilgan tarbiyadir”, -degan edi Mitteran xonim<sup>23</sup>.

SHu tarzda Fransua Mitteranning ikkinchi jahon urushi yillaridagi faoliyati qarshilik harakati bilan chambarchas bo`g`langan holda uning siyosiy karerasi uchun ham o`ziga xos pillapoya vazifasini o`tadi.

---

<sup>23</sup> Востотинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 59.

### 1.3. Mitteran siyosiy faoliyatining boshlanishi.

1943 va 1944 yillar davomida urush fronlarida Sovet armiyasining fashistlar Germaniyasi asosiy kuchlarini mag'lubiyatga uchratishi natijasida SSSR qo'shinlari Rumniya bilan chegaralarga chiqib Polsha chegaralariga yaqinlashdi.

1944 yilning 6 iyunida ikkinchi frontning ochilishi munosabati bilan general eyzenxauer qo'mondonligi ostidagi ingliz-amerika qo'shinlari SHimoliy Frantsiyaga tushirildi. Shu yilning 15 avgustida Frantsiyaning janubiga ikki davlat qo'mondonligi o'z davlat desantlarini yo'lladilar. Buning ortidan Frantsiya hududiga Frantsuz respublikasining vaqqli hukumatiga qarashli harbiy qismlar kiritila boshlandi.

Angliya va AQSH hukmron doiralari qarshilik harakati yordamiga ishongan bo'lsalarda, ommaviy xalq g'alayonlaridan xavotirga tushganliklari bois aholini tinchlikni saqlashga chaqirdilar<sup>24</sup>.

Ittifoqchi qo'shnlarning Frantsiyaga tushirilganligi haqidagi xabar mamlakatda milliy isyonni keltirib chiqardi. 6 iyunda London radiosidan chiqish qilgan general de Goll Frantsiyaning barcha o'g'lonlarini qo'lda mavjud qurollari bilan kurashga chorladi.

Frantsiya bo'ylab vatanparvarlik harakati keng quloq yoydi. Bir necha kun ichida bu harakatlarda ishtirok etuvchilar soni 25 mingdan 250 ming kishiga etdi. 1944 yilda butun Frantsiya bo'ylab boshlanib ketgan qo'zg'olonlar 90 ta frantsuz deportamentidan 40 tasini qamrab olgan bo'lsa, shundan 28 departamentni ozodlikka chiqarishda qarshilik harakatlari ishtirokchilari jonbozlik ko'rsatdilar. 1944 yilning 24 avgustigacha davom etgan kurashlardan so'ng Parijning asosiy qismi ozod bo'ldi. 25 avgustda Monparnas vokzalida Rol-

---

<sup>24</sup> Смирнов В.П. Новейшая история Франции... С.218.

Tangi va general Leklerk nemis garnizoning rasmiy kopitulyatsiyasini qabul qildilar Parij qurolli qo'zg'oloni to'la g'alaba bilan yakunlandi<sup>25</sup>.

Milliy qo'zg'olon muvoffaqiyati tez orada Frantsiyaning to'la ozod bo'lishiga olib keldi. 1944 yil sentyabr oyining o'rtalarida elzas va Lotaringiyadan tashqari deyarli butun frantsuz teritoriyasi nemis qo'shinlaridan ozod qilindi. Bu ikki hududni ozod qilish shu yilning noyabr-dekabr oylarida amalga oshirildi. Vishi tartiboti quladi. Hokimiyat muvaqqat hukumat qo'liga o'tdi va unga rahbarlik general de Gollga topshirildi.

Frantsiya boshqa malakatlar singari urushdan holdan toygan holda chiqdi. Deyrli butun frantsuz portlari bombardimon natijasida yaroqsiz holga kelib qolgan, zavod va fabrikalar ishlamas, malakatda ko'mir va neft mahsulotlari taqchilligi kuchli sezilayotgan edi.

12 sentyabrda de Goll qarshilik harakati tashkiloti vakillari oldida chiqish qilib, tashkil etilajak yang davlatning rejasi bilan ularni tanishtirdi. De Goll Mitteranga sobiq front askarlari ishi bo'yicha vazirlikda yuqori lavozimni taklif qildi, ammo Mitteran bu taklifni rad etdi. Buning bosh sababi Mitteranning de Goll oldida o'z g'ururini poymol qilishni istamaganligi va qarshilik harakatidagi ishtirokining adolatsiz baholanganligi edi. U endi katta siyosat sari qadam tashlash haqida o'yflay boshlagan edi. 1946 yilning iyunida ikkinchi tasis majlisiga o'tkazilgan saylovlarda mag'lubiyatga uchragan Mitteran Nevr deportamentida parlament kursisi uchun navbatdagi kurashni boshladi. U o'z nomzodini 1946 yilning 10 noyabrida Milliy Kengashga bo'lgan saylovlarda ham ilgari surdi.

Mahhalliy notabillar qo'llab-quvvatlashi bilan emas, balki saylovchi dehqonlar oldida nutq so'zlagan va ularning ishonchiga kira olgan Mitteran shu yo'l bilan o'z g'alabasini ta'minladi. "Men parlamentda 22 yil faoliyat yuritgan bo'lsam, hech qachon saylov okrugini, partiyani va deputatlik guruhini

---

<sup>25</sup> Колосков И.А.; Цырульников Н.Г. Народ Франции в борьбе против фашизма. М., 1960 С. 279.

o'zgartirishga intilmadim. Men sotsialistlar tomonidan ilgari surilgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy qonun loyihalari uchun ovoz berdim va bu partiya tomonidan o'tkazilgan kengashlarning doimiy ishtirokchisi bo'lib keldim". Mana shu yillar oralig'ida unga butun Frantsiya bo'ylab parvoz qilishi uchun qanot bo'lgan qadrdon departamenti vatanparvarlaridan bo'lib keldi<sup>26</sup>.

1947 yilning 22 yanvarida 30 yoshli Mitteran sobiq askarlar va urush qurbonlari bo'yicha vazir sifatida hukumat tarkibiga kiridi. Shu tariqa uning 4-respublikadagi siyosiy karerasi boshlandi. 10 yil davomida u 11 ta vazirlik kursilarini egalladi, shu jumladan, uni ichki ishlar, adliya va dengiz orti hududlari bo'yicha vazir lavozimlarida ko'rish mumkin edi.

50 yillar boshida Fransua Mitteran barcha yirik partiyalar faoliyatidan chetta turdi. Bunga uning mazkur partiyalarga rahbarlikda ikkinchi darajali bo'lishni istamaganligi sabab bo'lgan edi. Shu vaqtda u ko'pchilik uchun kutilmagan bir vaziyatda o'zining shaxsiy mustaqil partiyasini tashkil etishga kirishdi. 1947 yilda demokratik partiya va Qarshilik harakati sotsialistik ittifoqi (YUDSR) mamlakat ozodligi yo'lidagi vatanparvarlik harakatidan chiqqach Mitteran Qarshilik harakati avlodlari frantsuz jamiyatining rivojlantirishning o'z kontsepsiyalarini iaklif qilishlari lozim degan xulosaga keldi. Biroq YUDSR dasturi uzviy va qat'iy xususiyat kasb etmagan edi. U ilgari surgan dasturda davlat institutlarining shakllanishida qarshilik harakatining bir muncha radikal shiorlari haqida eslatib o'tilmaydi, faqat ayrim islohotlarni o'tkazish yo'li bilan 3-raspublia tartibotiga qaytmaslik lozimligi ta'kidlanadi xolos.

1953 yilning 24 noyabrda YUDSR ning Nanddagi VII se'ezdida Mitteran mazkur partiya rahbarligiga saylandi. Ushbu yirik bo'lmagan markazchilar tashkilotining boshlig'i bo'lgach u millat ko'lamidagi lider darajasiga erishdi. 1950 yilning 13 iyulida hukumatni shakllantirishga mandatlikni qo'lga kiritgan L.Pleren Mitteranning iltimosiga ko'ra uni dengiz orti ishlari bo'yicha vazir etib

---

<sup>26</sup> Вастютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 59.

taynladi. Ushbu muhim lavozimda u mamlakat uchun hali qiyinchiliklar bartaraf etilmagan kezlarda o'zining qobiliyatli davlat arbobi ekanligini namoyon qilib, hukumatni milliy ozodlik harakatlarini kuch bilan bostirish siyosatidan voz kechishga undadi va shu bilan birga mustamlakalardagi milliy ozodlik harakatining taniqli vakillari bilan muzokaralar boshlashga tayyorligini ham bildirdi.

Progressiv kayfiyatdagi afrikalik liderlar L.Sengora, S.Ture, M.Keyti ishonchisha kirgan Mitteran Parijdagi siyosiy doiralardan ayrimlarining noroziligini keltirib chiqardi. Ish shu darajaga borib etdiki radikal partiya deputatlari, klerikallar va gollistlar prezident F.Oriolga telegramma yo'llab "Qora afrikani xalqaro kommunizm qo'liga topshirgan" Mitteranni hukumat tarkibidan chiqarishini talab qildilar<sup>27</sup>.

Mitteranning kolonial masalalar bo'yicha qarashlari bir qadar inkor etuvchi xususiyatlarga yo'g'rilgan. Liberal pozitsiyani egallagan siyosatchi Frantsiya tobeyligi ostidagi hududlarga yirik huquqlar berilishini yoqlaydi, biroq bu hududlar mustaqil va suveren davlat maqomini olishi va Frantsiya ta'siri ostidan chiqib ketishi mumkinligi haqida mushohada yuritmaydi. Uning bosh maqsadi yagona davlat doirasida frantsuz hukumatining Afrikadagi mahalliy hukumat vakillari bilan hamkorlik qilishiga bu ishga imkon beruvchi siyosiy vositalarni qo'llagan holda erishish edi.

1954 yil Mitteran hayotiga "Mengdes-Frants yili" sifatida kirdi. Nihoyat u o'z g'oyalarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ldi, chunki hukumat tepasiga Mitteran bilan qarashlari bir-xil bo'lgan P.Mendes Frants klgan u ham Mitteran singari dekolonizatsiya bilan bog'liq murakab masalalarni hal qilishda original yondashuv tarafdori edi. 1954 yilning 17 iyunida "Milliy yangilanish" dasturi bilan millat majlisida chiqish qilgan yangi bosh vazir 50 yillarda kolonial masalalarni harbiy kuch ishlatish yo'li bilan hal qilishni inkor etuvchi siyosiy

---

<sup>27</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 60.

arbob sifatida bir oy muddatda Hindixitoydagi urush harakatlarini yakunlash haqida ma`lum qildi. Frantsiyaning tashqi siyosati uning ichki uyg'onishi bilan bog'liq deb bayonot beradi yangi bosh vazir.

Dar haqiqat Mendes Frants parlament deputatlariga bergan vadasini bajardi. 1954 yilning 20-21 iyunida Hindixitoyda tinchlikni tiklash haqida Jeneva kelishuvlari imzolandi. Dunyoning ushbu mintaqasida og'ir harbiy va moddiy moliyaviy chiqimlar yukidan xolos bo'lgan Frantsiya tashqi siyosatda o'zining asosiy yo'nalishini Yevropa va Afrika doirasida amalga oshirishga kirishdi.

O'z vazifalarini endigina bajarishga kirishgan Mendes Frants kabineti bunday keskin hatti-harakatlari bilan frantsuz kabenitida zo'rg'a o'zini saqlab qola oldi. Chunki bu voqeyliklarnin barchasi urushdan keyingi Frantsiya tarixiga o'ziga xos dramatik moment sifatida kirdi. Mamlakatda siyosiy vaziyat Yevropa mudofa hamjamiyati (EMH)ni tashkil etishga qaratilgan Parij shartnomasi loyihasini millat majlisida tasdiqlash chog'ida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Millat majlisi tomonidan mazkur shartnomaningratifikatsiya qilinishi arafasida Meendes Frants kabinetining 3 a`zosi bosh vazir olib borayotgan siyosatga qarshilik belgisi sifatida hukumat tarkibidan chiqish uchun istefo berishdi. O'z lavozimini tark etgan vazirlar orasida Mitteran bilan ham fikr bo'lgan shaxsslar ham bor edi. Biroq Mitteran ulardek yo'l tutmadi va ovoz berish jarayonida o'z mansabida qoldirildi.

Mendes frants hukumatining tashqi siyosatidagi asosiy yo'nalishlardan biri bu Afrika siyosati edi. Mitteran ichki ishlar vaziri rahbarligini o'z qo'liga olish bilan Jazoyir masalasini hal qilishga intildi, chunki Jazoyir masalalari Frantsiya ichki ishlar vazirligi vakolati doirasiga kirardi. Frantsiyaning Jazoyirdagi manfaatlarini himoya qilishda o'z qat'iyiligini namoyish qilgan Mitteran mazkur vaziyat bo'yicha nazoratni qo'ldan chiqarmagan holda uni qonun doirasida ko'rib chiqishga undaydi. 1955 yilning 5 yanvarida Vazirlar kengashi Mitteran rahbarligi ostida tayyorlangan islohotlar dasturini qabul qildi.

Shu yilning 2-3 fevral kunlari millat majlisida SHimoliy Afrikadagi siyosati bo'yicha bahs munozaralar bo'lib o'tdi. Buning sababi mazkur qaram hududda politsiya va harbiy hukumatning mahalliy aholiga nisbatan qatag'onlarini hukumatning kuch bilan bo'lsada bostira olmaganligi edi. Shunga ko'ra 5 fevralda parlament Mendes Frants hukumatiga ishonchsizlik bo'yicha votum e'lon qildi. Bunday qat'iy hatti harakatlar Mitteranning islohotchilik rejalariga jiddiy zarba berdi. Millat majlisida yuzaga kelgan vaziyatdan so'ng prezident yangi hukumat tashkil etishni Frantsiya sotsialitik partiyasi (SFIO) bosh kotibi Gi Mollega topshirdi. Fransua Mitteran ham Pendes Frants, J.SHavan – Delmas, G.Deffer, A.Savare singari 4-respublikaning taniqli siyosiy arboblari qatoridan adliya vaziri sifatida yangi hukumatdan joy oldi. Mazkur hukumat faoliyatida Jazoyir fojiasi asosiy o'rinni egalladi. O'z taktikasiga sodiq qolgan Mitteran milliy qutqarish Jazoyir fronti bilan aloqalarni o'rnatishni yoqlab chiqqan Mitteran ikki tomonlama muzokaralar boshlash lozimligini talab qila boshladi.

1956 yilning 26 iyulida Misr prezidenti Jamol Abdulnosir Frantsiya-Britaniya kompaniyasiga tegishli bo'lgan Suvaysh kanalini natsionalizatsiya qilish haqida e'lon qilgach Gemole hukumatining ahvoli nihoyatda keskinlashdi. 29-30 oktyabrda Frantsiya, Buyuk Britaniya va Isroil bilan hamkorlikda YAqin SHarqda harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Mitteranning ushbu murakkab masala bo'yicha pozitsiyasi mamlakatda hukm surayotgan kayfiyatdan farq qilmasdi. U Suvaysh operatsiyasini qo'llab quvvatladi va Misr hukumatining mazkur hatti harakatini Fashistlar Germaniyasini 1939 yil martida CHexoslovakiyani bosib olish voqeasiga tenglashtirdi. Ammo ushbu qurolli intervensiya 1956 yilning noyabrida to'liq Frantsiya, Britaniya mag'lubiyati bilan yakunlandi. Mitteran \respublika kengashida chiqish qilib, hukumatning tashqi siyosiy faoliyatiga tanqidiy baho berdi. Shundan so'ng kunsayin uning hukumatdan noroziligi ortib borsada, u Gemole hukumati tarkibida 1957 yilning

21 mayiga qadar qoldi. Moliyaviy islohot loyihasini muhokama qilish chog'ida hukumatning parlamntda ishonch votumini qo'lga kiritma olmaganligi uning mazkur sanada iste'fo berishiga sabab bo'ldi. 4- respublik o'zining so'ngi kunlarini boshdan kechirmoqda edi. Uni boshqarish mumkin bo'lmay qoldi. 1958 yilning 13 mayida Jazoyirda harbiylar isyoni ko'tarildi. General Massyu boshchiligida ijtimoiy qutqaruv qumitasi tashkil etildi. Tarkibi fuqarolik va harbiy shaxslardan tashkil topgan mazkur qumita hukumatning de Gollga topshirilishini talab qilib chiqdi.

1958 yil Mitteranning siyosiy taqdirida keskin burilish davri bo'ldi. Qonunchilik va parlamentarizm tarafdori bo'lgan F.Mitteran de Gollning hokimiyatga kelishini istamasdi. Uning nazdida de Gollga diktatorlik xususiyatlar iko'proq edi. Shu yilning 1 iyulida millat majlisida vakolatlarning de Gollga topshirilishi masalasi muhokama qilindi. Munozaralar chog'ida ikkinchi jahon urushi yillarida Frantsiya g'alabasiga o'z hissasini qo'shgan generalga "tahsin aytgan" Mitteran mamlakat hayotida kuzatilayotgan og'ir vaziyatda de Gollning hokimiyatga kelishi Frantsiyada harbiy diktatura o'rnatilishi bilan yakunlanishi mumkinligi haqida bayonot berdi. Natijada 329 deputat de Goll nomzodini yoqlab ovoz bergan bo'lsa, 224 deputat "qarshilar" safidan joy oldi<sup>28</sup>. Shunday bo'lsada, Millat majlisi de Gollga yangi mahkamani joriy etish topshirildi. YuDSRning 10 deputatidan faqat 3 nafarigina, shu jumladan, R.Dyuma partiya raisi Mitteranning qo'llab-quvvatladilar.

De Gollga qarshi qaratilgan kompaniya Mitteran uchun muvaffaqiyatli yakunlanmadi. Shundan so'ng u so'l kuchlar bilan yaqinlashish fursati etdi, degan xulosaga keldi. 1959 yilda Mitteran SFIONing so'l qanotidan ajralib chiqib, tashkil etilgan avtonom sotsialistik partiya (ASP) safiga kirishga harakat qildi. Biroq partiya Mitteranni qabul qilishdan bosh tortdi. Shunisi qiziqki mazkur partiya Mitteran nomzodini rad etgan bo'lsa Mendes Frantsning partiyaga qabul

---

<sup>28</sup> Арзаканян М.Ц. Де Голль и голлисты на пути к власти. М., «Высшая школа», 1990. С.143.

qilish haqidagi murojatini qoniqtirdi. Bunday kutilmagan voqeylik Mitteran ruhiyatiga keskin salbiy tasir o'tkazdi. 1958 yilning kuzida millat majlisiga o'tkazilgan saylovlarda deputatlik mandatidan mahrum bo'lishiga qaramay u ruhini tushirmadi. 1959 yilning 26 martida uni SHato-shinon meri etib sayladilar. 1961 yilning iyunida Monsosh kantonining bosh maslahatchisi lavozimiga Mitteran nomi loyiq ko'rildi. Va nihoyat 1959 yilning 26 apreldagi saylovlarda u senatorlik kursisini egallashga muvaffaq bo'ladi.

Saylov oldi kompaniyasi chog'ida Mitteran o'zini shaxsiy hokimiyat tartibiga qarshi murosasiz yo'lni tanlovchilar sifatida namoyon qildi. Bu uning hayotiga suyuqasd bilan bog'liq bo'lgan "Observatoriya" ishini qurboniga aylanishiga sabab bo'ldi. 1959 yilning oktyabrida millat majlisi deputati gollist R.Leske Jazoyirlik ultra guruhlar tomonidan uning hayotiga suyuqasd tayyorlanayotganligi haqida so'zlab berdi biroq bu ma'lumotni qaerdan olganligi ma'lum qilishni istamadi. Ko'p o'tmay Mitteranning mashinasi Parij observatoriyasi hiyoboni yonida noma'lum shaxslar tomonidan o'qqa tutildi. Bergan vadasiga sodiq qolgan Mitteran tergov davomida o'zining R.Leske bilan suhbatini haqida ma'lumot bermadi. Mazkur voqea yuzasidan o'tkazilgan press konferentsiya davomida Mitteranning bu harakatlari o'zi uchun foydali yakunlanmadi. Uning barchani e'tiborini tortish uchun suyuqasd uyushtirganlikda aybladilar. O'z navbatida siyosiy doiradagi do'stlarning ko'pchiligi Mitterandan yuz o'girdilar.

Bu Mitteran hayotidagi siyosiy karerasi tugash arafqasida turgan eng og'ir pallalar bo'ldi. O'ng matbuot, radio va televedenie bir tomondan, hukumat ham Mitteranni ayblovlariga ko'mib tashladi. Unga nisbatan nafratomuz qarashlarni yashirmagan bosh vazir M.Debre Frantsiya prokuroridan odil sudni aldagani uchun Mitteranni parlament dahlsizligidan mahrum qilish haqidagi masalani senat oldida muhokama qilishini talab qildi. 1959 yilning 25 noyabrida senat Mitteranni parlament dahlsizligidan mahrum qildi. Shunday og'ir sharoitda uni

faqat kommunist senatorlar va bir necha sotsialistlar qo'llab-quvvatladilar xolos. Shu yilning dekabrda "Abservatoriya" ishi sud majlisida ko'rildi. Unga qarshi amalga oshirilgan tadbir garchi muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan bo'lsada, yo'l qo'yilgan xatoliklar unga qimmatga tushdi, Mitteran nomi bulg'ab tashlangan edi. Odil sud ham fitnaning haqiqiy aybdorlarini aniqlab bera olmadi.

Mitteranning siyosiy raqiblari unga nisbatan yolg'on kompaniya olib borgan bo'lsalarda uni manan sindira olmadilar va siyosiy maydondan chiqib ketishiga erishmadilar. 60 yillarda Mitteran ishonchli partiyaviy tuzilma tashkil etish bilan shug'ullandi. Bu partiya uning nazarida uning strategik g'oyalarini amalga oshirib berishi lozim edi. Frantsiyada klassik va islohotchi burjua partiyalar ta'sirining pasayishi munosabati bilan muhim rol o'ynay boshlagan e'tiborli siyosiy klublar Mitteran e'tiborini tortdi. 64 yilning 6-7 iyulida 50 dan ortiq klub Parijda chaqirilgan ta'sis se'zdiga tashrif buyurgan chog'da bir butun respublikachi institutlar konventiga birlashdilar. Mitteranning o'z oldiga qo'ygan maqsadi amalga oshdi va Frantsiyaning siyosiy xaritasida o'z dasturi hamda nisbatan qat'iy tashkilotchilik tuzilmasiga ega bo'lgan So'l qarashlarga yo'g'rilgan partiya paydo bo'ldi<sup>29</sup>.

Mazkur konvent demokratik va sotsialistik so'l kuchlar fideratsiyasi (DSSKF) tarkibiga ba'zi ilg'or partiyalarni jamlashda jonbozlik ko'rsatdi. Konvet dasturi bo'lmish "Ijtimoiy shartnoma" Mitteranning ichki va tashqi siyosat masalalari bo'yicha asosiy takliflarini o'ziga jamladi. Bu takliflar 1965 yil prezidentlik saylovlari arafasida Mitteran tomonidan ilgari surildi.

SHu yildagi prezidentlik saylovlarida frantsuz ishchilarining 42% de Goll uchun ovoz bergan bo'lsalar, Fransua Mitteran saylovlarning birinchi turidan muvaffaqiyat bilan o'tdi. Ammo ikkinchi turda 45% ovoz olib, o'zi uchun saylov g'alabasini ta'minlay olmadi.

---

<sup>29</sup> [www.my-article.net](http://www.my-article.net).12.03.2012.

Mitteran frantsuz sotsialistik partiyasining asoschilaridan biri sifatida mazkur partiyaning birinchi bosh kotibi etib tayinlangach partiyaning boshqa soʻl birlashmalar bilan ittifoqda boʻlish gʻoyasini yoqlab chiqdi. Uning fediratsiyaning ichki birdamligini mustahkamlashga boʻlgan urinishlari urinishlariga qaramay, 1968 yilda Mitteran faoliyatida baʼzi bir muvaffaqiyatsiz qadamlar koʻzga tashlanadi. Shu yilning mayida yuzaga kelgan de Goll tartibotining inqirozi va soʻl partiyalarning maddatidan oldingi partiya saylovlarida muvaffaqiyatsizlikka uchrashi DSSKF uchun berilgan soʻngi va ayanchli zarba boʻldi<sup>30</sup>.

Shunga koʻra, 1968 yilning 7 noyabrida federatsiya faoliyatiga yakun yasaldi. Biroq uning yadrosi respublikachilar instituti konventi timsolida Mitteranga sodiq boʻlib qoldilar. Shu yilning oktyabrida Konventning Levalluadagi XI seʼzdida Fransua Mitteran ushbu tashkilotga rahbarlikdan voz kechdi va faqat prezidumda aʼzolicini saqlab qoldi. Usha vaqtlardayoq koʻpchilik uning siyosiy karerasi shu erda yakunlanadi, degan xulosaga kelgan edi. Ammo Mitteran bu safar ham oʻzining sergʻayratliligi bilan frantsuzlarni lol qoldirdi. Federatsiya rahbarligidan voz kechgan Mitteran oʻzining adabiy asarlari uchun yozgan qoʻl haqqi (gonorar)lari evaziga sotib olingan Viskay qoʻltigʻining sohil boʻylaridagi Landda joylashgan “Latche” fermasida navbatdagi asari “Mening haqiqatdagi ulushim” asarini yozish bilan shugʻullandi. 1969 yilning bahorida nashrdan chiqqan kitob sahifalarida muallif oʻzi va zamonaviy dunyo haqidagi fikrlari bilan birga sotsializmning “Frantsuzcha modeli”ni yaratish imkoniyatlari borasida fikr yuritdi.

60 yillar oxiri-70 yillar boshlarida soʻl kommunist boʻlmagan kuchlar bir necha bor yagona sotsialistik partiyaning tuzishga harakat qilib koʻrdilar. Bu partiya ular nazdida Frantsiya kommunistik partiyasi (FKP) bilan bir qatorda jamiyatda etakchi rolni oʻynashi lozim edi. 1970 yilning 7 noyabrida Mitteran bundan bir

---

<sup>30</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 62.

yil oldin fevralda SFIO lideri Gi Mollega taqdim qilingan respublikachilar instituti konventini SFIO bilan birlashtirish haqidagi taklifni ilgari surdi. 1971 yilning 11-13 iyulida epin-syur-Sen proventsiya shaharchasida bo'lib o'tgan birlashtirish se`zdi Mitteran siyosiy faoliyatida burilish nuqtasi bo'ldi. Ushbu se`zda chiqish qilgan bo'lajak prezident frantsuz sotsialistlarining klassik an`analari ruhida sokin tovushda ishtirokchilar bilan o'z fikr mulohazalari yuzasidan o'rtoqlashdi. Qaytadan tashkil etilgan FSP delegatlari uni qullab quvvatladilar va 16 iyunda partiya rahbar qumitasi Mitteranni partiyaning birinchi kotibi etib sayladi. Shu tarzda g'arbiy Yevropa sotsial demokratiyasining ta`siri kuchli partiyalaridan biri uchun rahbarlik yo'lidagi kurash o'z nihoyasiga etdi.

Frantsiyaning eng ko'hna partiyalaridan biri rahbarligini qo'dga olgach Mitteran partiyaning degradatsiya holatidan chiqarish va saylovchilarning unga ishonchini qaytarish vazifasini amalga oshirishga kirishdi. O'z oldiga qo'ygan maqsad sari intilishda Mitteran FSPni hukumatning yuqori pillapoyalaridan o'rin olish, partiyaning g'oyaviy platformasi va tashkiliy tuzilmasini yangilash barobarida jamiyatni qayta tashkil etish loyihasini hayotga tadbqiq qilish kabilar bilan bog'liq edi. Sotsialistlarning yosh avlod vakillari Fransua Mitteranga ishonch bildirdilar va unga ergashajagini ma`lum qildilar. Shu bilan birga Mitteran FSPning Frantsiya siyosiy hayotidagi markaziy o'rinni egallashida partiyaning FKP bilan hamkorligini yo'lga qo'yish lozim, degan xulosaga keldi. Uning fikricha, bu ikki partiya birlashadigan bo'lsa, barcha so'l partiyalar ular atrofida birlashishlari mumkin edi. 1972 yilning 1 iyulida Venada bo'lib o'tgan Sotsintern majlisida u 5 mln. saylovchidan 3 mln.ni ovoz berishga hayrihoh bo'lgan kuchli siyosiy partiyaning tuzish istagida ekanligini ma`lum qildi.

1974 yilning 2 aprelida prezident Jorj Pompidu vafot etdi. Tez orada bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida YUDR dan o'z nomzodini qo'ygan J.SHaband-Delmas saylovlarning birinchi turidayoq 15 % ovoz olib undan chiqib ketgan

bo'lsa, ikkinchi turda mustaqil respublikachilardan nomzodi ko'rsatilgan Valeri Jiskar d' esten va F. Mitteran kurashni davom ettirdilar. Saylovning ikkinchi turida Mitteran uchun 49,2 %, d esten uchun esa 50,8 % saylovchi ovoz berdi. Jiskar d' estenning ushbu saylovlardagi muvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan biri uning mamlakat iqtisodiy hayotiga bog'liq bo'lgan muammolar yuzasidan Mitteranga nisbatan ko'proq munosabat bildirganligi va bu sohani yaxshi tushunganligi edi.

Saylov natijalari de Goll partiyasi uchun haqiqiy fojia bo'ldi. Buning bosh sababi saylovlar arafasida YUDRda gollistlar rasmiy nomzodi masalasida kuchli ziddiyat vujudga keldi. FKP va FSP so'l kuchlar rahbari F. Mitteranni yagona nomzod sifatida ko'rsatishga qaror qildilar. Ana shunday sharoitda YUDRda "baronlar"ning ko'pchiligi (R.Fre, O.Gishar, J.Fokkar, M.Debre) qo'llab quvvatlagan SHaban Delmas va prezident Pompiduga yaqin bo'lgan Jak SHirak tarafdorlari o'rtasida kurash boshlandi. Shunga ko'ra YUDR ijroya komissiyasi saflarida SHaban Delmas tarafdorlari ko'pchilikni tashkil etgani bois u saylovlarga o'z nomzodini qo'ygan 11 nafar shaxs qatoridan joy oldi<sup>31</sup>.

	IFOP			SOFRES			«Publimetri»		
F.Mitteran	9	16	29	9	12- 16	29- 30	11- 13	19- 20	25- 26
	40	41	42	40	40	44	43	44	44
J.SHabab-Delmas	29	25	18	28	26	17	24	19	17
V.Jiskar d' esten	27	27	31	27	28	31	27	24	31

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, IFOP o'ng yo'nalishdagi nomzodlarga ko'proq ovoz bergan. Ammo so'rovlar natijasida SHaban Delmasning imkoniyatlari tezlikda tushib keta boshlagan. 1974 yil 5-19 may saylovlari

<sup>31</sup> Новиков Г.Н. Голлизм после де Голля. Идеиная и социально политическая эволюция 1969-1981 гг. М., наука, 1984. С. 117.

davomida 13 mln. frantsuz ishonchiga kirgan Mitteran o'z raqibidan bor-yo'g'i 1,6 % kam ovoz oldi. Bu safar ham Mitteran "70- yillar poezdidan" ortda qoldi. Shunday bo'lsada Mitteran kelajakda so'l kuchlar bari bir g'alaba qozonishiga ishonadi.

70 yillar oxirida so'l muxolifat va hukumatdagi ko'pchilik orasida kuch muvozanatini o'zgartirishga qilingan urinish Mitteranga muvaffaqiyat keltirdi. Darhaqiqat FSP saylovchilar keng doiralari orasida o'z pozitsiyasini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. Yil sayin ushbu partiyani yoqlovchilar soni oshib, 1978 yilda u 180 mingdan ortiq kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 1971 yilga nisbatan qariyb 2,5 barobar ko'p demak edi<sup>32</sup>.

SHu bilan birga Mitteranning FSPdagi holati ham mustahkamlanib, u partiyaning so'zsiz liderlaridan biriga aylandi, endilikda unga prezidentlikka "abadiy nomzod" sifatida qaramay qo'ydilar. Mamlakatda o'z shuhratini tiklashga muvaffaq bo'lgan siyosiy arbob endilikda kellajak rejalarini tuza boshladi. Bu prezident etib saylangan taqdirda uning mas'uliyatli tashqi siyosiy yo'nalishni belgilab olishga bo'lgan urinishida ham namoyon bo'ldi. Shu maqsadda Mitteran birinchi galda FSPning g'arbdagi taniqli sotsial-demokratik partiyalar bilan aloqalarini mustahkamlashga urindi. To'g'ri partiyaning kommunistlar bilan ittifoqchilikda faoliyat yuritayotganligi dastlabki kezlarda G'arbiy Yevropa sotsial demokratik doiralarida Mitteranga nisbatan ishonchsizlikning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ammo u tomondan ishlab chiqilgan strategiya o'z mevalarini bera boshlagach Sotsintern partiyalari o'z qarashlarini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. 1972 yilning iyunida FSP sotsinternga qabul qilindi va Mitteran 5 nafar vetse raislar qatoridan joy oldi. U V.Brandt, F.Gonsales, M.Soaresh, M.Teodorakis singari G'arbiy Yevropaning sotsial demokratik liderlari bilan, shuningdek Osiyo va Afrikaning taniqli siyosiy arboblari bilan iliq munosabatlarni o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. FSP "uchinchi

---

<sup>32</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 63.

dunyo” mamlakatlarida sodir bo’layotgan voqealar rivojini doimiy kuzatgan holda bu davlatlar bilan har tomonlama hamkorlikni yo’lga qo’yish, shuningdek AQSHning xalqaro maydondagi siyosatini keskin tanqid qilish yo’lidan bordi.

Ta’sirli siyosiy kuchga aylangan FSP endilikda Frantsiyaning davlatchilik institutlari tizimida etakchi rol o’ynayotgan prezident hokimiyatini egallash uchun kurash boshladi. Shu bilan birga sotsialistlar barcha siyosiy jabhalarda strategik maqsad sifatida joylardagi hukumat boshqaruvini egallash vazifasini ilgari surdilar. Va nihoyat 80 yillar boshida Mitteran Elisey saroyi uchun kurashlarda g’alaba qozonish imkoniga ega bo’ldi. Ushbu maqsadni qo’lga kiritishdagi muhim yo’l bu so’l kuchlar harakatining birdamligini ta’minlash edi. O’z siyosiy faoliyatini markazchilar safida boshlagan Mitteran keyinchalik gollistik tartibotni keskin tanqid qiluvchi va u bilan murosada bo’lishni istamaydigan arbob sifatida namoyon bo’ldi. Vaqt o’tishi bilan muxolif kuchlar safidagi kurash mantig’i uni sotsialistik partiya safiga etakladi. Aynan Mitteran rahbarligi ostida o’z yo’nalishini belgilab olgan FSP mamlakat miqiyosida eng ko’p ovoz oluvchi partiyalar safidan o’rin oldi. Bu yo’lda Mitteran kommunistlarning “Xalq ovozi”ni olishdan ham toymadi. FSPni qayta tashkil etgan bu shaxs uni mamlakatning birinchi siyosiy kuchiga aylantira oldi. 1977 yildayoq o’tkazilgan so’rovnomalar chog’ida Mitteran Jiskard estenga nisbatan prezident bo’lishga loyiq, deb hisoblovchilar salmog’i 44 %ni tashkil qildi<sup>33</sup>. Shu boisdan ham 1981 yilning 24 yanvarida Kretey shahrida bo’lib o’tgan FSPning favqulodda se’zdida Mitteran nomzodi bo’lajak prezidentlik saylovlarida ishtirok etishi belgilandi. Mazkur se’zdada uning “Frantsiya uchun 110 taklif” deb atalgan saylov oldi dasturi qo’llab quvvatlandi. Shu tariqa 80 yillar boshigacha siyosiy kurashlardan charchamagan va har safargi mag’lubiyatdan so’ng undan chiqish yo’lini topa olgan F. Mitteran 1981 yilgi saylovlarda mutloq kupchilik ovozga ega bo’lgan 5 respublikaning navbatdagi prezidentiga aylandi.

---

<sup>33</sup> Новиков Г.Н. Голлизм после де Голля. Идеиная и социально-политическая эволюция... С.206.

## **II BOB. FRANSUA MITTERAN YIRIK DAVLAT ARBOBI**

### **2.1. Fransua Mitteran Frantsiya prezidenti**

Yuqorida ta'kidlanganidek, FSPning navbatdan tashqari favqulodda s'ezdidan so'ng Fransua Mitteranning 1981 yil saylovlarda ishtirok etishi belgilandi.

Shu yilning mayida boshlangan saylovlar chog'ida mamlakatning boshqa siyosiy kuchlari birdamlik namunasini ko'rsata olmadilar. Ulardan hech biri yagona nomzodni ilgari surish haqida kelishuvga erisha olmadi. Saylov oldi kampaniyasining dastlabki kunlaridanoq prezidentlikka nomzodlar ichida g'alabaga erishish uchun real imkoniyatlar Jiskar d'estenn va Mitteranda bor edi. Agar Jiskar d'esten o'zining zamonaviy mutaxassislik sifatlarini ko'rsatishga intilgan bo'lsa, Fransua Mitteran "sokin kuch" shiori ostida Frantsiyaning eng chekka hududlarida kundalik hayotiy muammolar yuzasidan o'z fikrlarini bildirishga intildi va bu unga nisbatan saylovchilar ovozlari yig'ilib borishi bilan belgilandi.

Aytish kerakki, 1974 yilgi saylovlar chog'ida uning nomzodini yoqlaganlar orasida ijod ahli, ilmiy texnik intellegentsiya ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lsa, bu dafa ular orasida jamiyatning mehnatkash qatlamlari – ishchilar etakchi o'rin egallaydi. Saylovlarning birinchi turida u "YAshillar" bilan birgalikda 51 % dan ko'proq ovoz oldi. Yangi saylov qonuniga muvofiq, shu yilgi prezidentlik saylovlarida 18 yoshga to'lgan yoshlarning ishtiroki ham ta'minlangan edi. Bu yoshlarning aksariyati so'l kuchlar nomzodi va u tomondan e'lon qilingan dasturni qo'llab-quvvatladi. Shu bilan birga 1981 yilning 5 mayida Fransua Mitteranning Jiskar d'esten bilan televideniedagi bahslari Frantsiya uchun misli ko'rilmagan auditoriyani yig'di. Qariyb 30 million fuqaro nomzodlar bahsini kuzatib bordi va bu hali-hamon kimga ovoz berishni bilmayotgan ayrim fuqarolarning o'zlariga to'g'ri yo'l tanlashlarida yordam berdi.

O'tkazilgan ikkinchi tur saylovlaridan so'ng butun Frantsiya uning natijalarini mushtoqlik bilan eshitishga tayyor edi. Bu vaqtgacha siyosiy doiralar

va matbuot jamoatchilik fikri asosida soʻl kuchlar nomzodi muvaffaqiyatga erishganini maʼlum qilishgan edi. Saylov uchastkalarining yopilishigacha taxminan 1 soat oldin oilasi va doʻstlari bilan SHato – SHinonda boʻlgan Mitteran 10 ga yaqin jurnalistlar va Frantsiya ichki ishlar vazirligi maxsus xizmatidan gʻalabaga erishganligi haqidagi xabarni oldi. Saylov natijalarini eʼlon qilinishini kutib oʻtirmagan Jiskard estenn ham unga oʻz tabriknomasini yoʻlladi. Darhaqiqat, Mitteran uchun Frantsiyaning 15,7 million aholisi yoki saylovchilarning 51,8 % ovoz berdi shunga asosan 15 mayda konstitutsiyaviy kengash Mitteranni Frantsuz respublikasining tashkil etilishidan keyingi 21-prezidenti deb eʼlon qildi. 1981 yilning 21 mayida Elisey saroyida hokimiyatning tantanali topshirish marosimi boʻlib oʻtdi. Ishtirokchilarga qarata murojaat qilgan Mitteran oʻzining sotsialistik ideal gʻoyalarga sadoqatli ekanligini maʼlum qilib, oʻzni uzoq asrlar davomida jonajon mamlakati tarixini yaratgan mehnat ahli tomonidan yuborilgan vakil deb bilishini maʼlum qildi.

Qarorgohdagi ushbu tantanadan soʻng Mitteran Triumfal arkada noʻmalum soldat qabridagi sunmas olov poyiga gulchambar qoʻydi, kechqurun esa Lyuksemburg bogʻidan Frantsiyaning eng sara oʻgʻlonlari maqbaralari joylashgan Panteonga piyoda joʻnadi va bu erda sotsialist Jan Jores, qarshilik harakati qaxramoni J.Mulen va frantsuz imperiyasida qulchilikni bekor qilish haqidagi dekret muallifi boʻlmish V. Shelshe qabrlarini ziyorat qildi. Butun mamlakatda taniqli D. Barenboym rahbarligidagi Parij simfonik orkestri prezident yurishi chogʻida unga orkestr joʻrligida hamroh boʻlib bordi.

Erishilgan gʻalaba bilan qutlashga kelgan qadrli mehmonlar orasida J.Joresning nabirasi, CHili prezidenti S.Al`endening rafiqasi, portugal sotsialistlari lideri M.Soaresh ham bor edi<sup>34</sup>.

1981 yilning 22 mayida P.Morua hukumatining dastlabki tarkibi eʼlon qilindi. Unga sotsialistik partiyaning taniqli shaxslari va deyarli butun intellektual ilita (Frantsiyaning eng taniqli universitetlarida faoliyat yuritgan professorlar),

---

<sup>34</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 64.

shuningdek soʻl radikallar va baʼzi bir partiyasizlar bor edi. Hukumat dastlabki kunlardan oq Mitteranning saylov oldi kampaniyasi chogʻida ilgari surgan dasturida belgilab berilgan masalalar yuzasidan ayrim yangiliklarni hayotga tadbiq qilishni boshladi. Frantsuz jamiyatini bosqichma – bosqich isloh qilishga moʻljallangan bu dasturlarda Frantsiya hayotiga dahldor koʻpgina muammolar koʻrsatilgan va ulardan chiqish yoʻllari ham belgilab berilgan edi. Milliy majlisda koʻpchilik oʻringa ega boʻlgan oʻng partiyalar bunday tashabbuslarga qarshilik koʻrsatgan holda hukumat faoliyatini toʻxtatib qoʻyishi mumkin edi. Shuning uchun prezident muddatidan oldingi parlament saylovlarini oʻtkazishga qaror qildi va shu yoʻl bilan parlamentdagi siyosiy kuchlar va muxolifatni ikkinchi darajali oʻringa tushirib, soʻl partiyalar uchun zaruriy imkoniyatlarni yaratishga intildi.

1981 yilning 14 21 iyun kunlari boʻlib oʻtgan parlament saylovlarida FSP tarixiy muvaffaqiyatni qoʻlga kiritdi. Parlament tarkibi keskin oʻzgardi: Milliy majlisda FSP 550 oʻrindan 285 tasiga ega boʻldi, shu ondayoq ular parlamentni “qizil palata”ga aylantirdilar. Ammo siyosiy hayotni soʻl tomonga burish bu aslida mamlakat hayoti ham yangilik sari yuz burdi, degani emas edi. Mamlakat boshqaruvi uchun 7 yillik mandatga ega boʻlgan Mitteran jadallik bilan oʻz oldiga qoʻygan maqsadlarini amalga oshirishni boshladi. Davlat rahbariga aylangan faoliyatining dastlabki bosqichida u va uning hukumati iqtisodiy rivojlanish va bandlik darajasini yuqori darajada taʼminlash uchun bor imkoniyatlarini ishga solajaklarini maʼlum qilishdi. Oʻz faoliyatining dastlabki uch yilida Mitteran hukumati 20 ga yaqin qonunlar qabul qildi, bu qonunlarda mehnatkashlar ahvolini yaxshilash, haftalik ish soatini ish haqini saqlab qolgan holda 40 soatdan 39 soatga tushirish, nafaqa yoshini 65 dan 60 yoshga tushirish, yillik taʼilni 5 haftagacha koʻpaytirish, kam haq toʻlanuvchi mehnatkashlarga oylik maoshni oshirish kabi tadbirlar haqida soʻz boradi.

Yangi hukumat tomonidan amalga oshirilgan muhim tadbirlar orasida milliy lashtirish asosiy oʻrin egallaydi. Shu yoʻl bilan Fransua Mitteran

o'zgarishlar sari yangi yo'l ochib, mamlakatni boshqarishning iqtisodiy richagini o'z qo'liga olishga intildi. 1982 yilning 13 fevralantsiya mehnatkashlarining qariyb 15%i mehnat qilayotgan to'qqizta korxonalar va jamiyat davlat nazorati ostiga olinadigan bo'ldi. Milliy lashtirish 95% bank va sug'urta kompaniyalarini ham qamrab oldi. Ilk marotaba so'nggi 100 yil ichida davlat hokimiyatini markazlashtirish bo'yicha islohotlar o'tkazilib, unga ko'ra, kommunalar, departamentlar va regionlarga ular manfaati yuzasidan paydo bo'ladigan masalalarni hal qilishda keng vakolatlar berildi.

Xristian ta'limoti va legitimizmning yorqin namoyondasi sifatida Mitteran davlat institutlarining demokratlashuvi va insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan bo'lishiga katta ahamiyat qaratdi. 1981 yilning 4 avgustida Milliy majlis umumiy avf berish haqida qaror qabul qildi, bunga ko'ra, javobgarlikka tortilgan mahbuslarning beshdan bir qismini ozodlikka chiqarish belgilandi. Bundan keyingi tadbirlar sirasiga davlat xavfsizlik sudi faoliyatini tugatish, 1961 yilning aprelida Jazoirdagi harbiy isyondan so'ng general de Goll tomonidan joriy qilingan doimiy harbiy tribunallarni tarqatib yuborish kabi qonun loyihalari ham kiritildi. Prezident Mitteran prezidentligi yillarida Frantsiya G'arbiy Yevropa davlatlari ichida o'lim jazosi bekor qilingan so'nggi mamlakat bo'ldi.

Prezident va uning hukumati ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish, frantsuzlar keng ommasining mamlakat madaniyati va ma'naviy boyligidan bahramand bo'lish imkonini beruvchi navbatdagi tadbirlar rejasini e'lon qildi. Sotsialistlar ilm ahli va madaniy jabhalarda faoliyat yuritayotgan arboblarni o'z tomonlariga og'dirishga, ular bilan hamkorlik rishtalarini bog'lashga muvaffaq bo'lishdi. Prezidentning o'zi ham bir qancha taniqli madaniyat va fan arboblari bilan shaxsiy aloqalarni yo'lga qo'ydi<sup>35</sup>. Shu yillarda radio va televidenie sohasida jiddiy o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Bu prezidentning shaxsan nazorati ostida hukumat o'z faoliyati davomida e'tibor qaratadigan sohalardan biri edi. Shunga ko'ra, televidenie avvalgi ma'muriyati

---

<sup>35</sup> Век XX: Политика Люди Судьбы. Под общей ред. Ш.Эргашева. Ташкент, «Шарк»,2007. С.181.

o'rniga Sotsialistlarga yaqin turgan va Mitteran ishonchiga sazovor bo'lgan shaxslar keldi.

1981 yilning 29 iyulida radio eshittirishlari va televedeniening yangi statusi haqidagi qonun qabu qilindi. Mazkur qonunda jurnalistlar siyosiy qarashlarida plyuralizm va mustaqillik tamoyillariga amal qilishiga imkoniyatlar yaratib berilishi ta'kidlandi.

Mamlakatda mavjud davriy matbuot nashrlarining aksariyat ko'pchilik qismiga o'z nazoratini o'rnatgan o'ng doiralarning matbuotdagi monopoli holatiga ta'qiq joriy etish va chegaralash maqsadida hukumat tomonidan parlamentga matbuot haqidagi qonun loyihasi kiritildi. Ushbu masala yuzasidan bahs munozaralar uzoq vaqt davom etdi. Qonunchilik xujjatlari bo'yicha komissiya ishida o'ng muxolifat mazkur loyihani "So'llar tomonidan amalga oshirilgan hisob kitob" deb baholab, unga 1753 ta o'zgartirish kiritgan bo'lsa, Milliy majlisning plenar majlislarida bunday o'zgartirishlar soni 2978 taga etdi.

P.Morua hukumati tomonidan amalga oshirilgan islohotlarning barchasi mamlakatda kapitalizm bilan munosabatlarni uzil-kesil uzishni anglatmasdi. Bu loyihalar yangi ijtimoiy yangilanishlar uchun zaruriy shart sharoitlarni yaratib berdi<sup>36</sup>.

Hokimiyat tepasiga Mitteran boshchiligidagi sotsialistlar kelgandan so'ng, dastlabki ikki yil ichida FSP hukmron partiya sifatida o'z mavqeyini yanada mustahkamlashga harakat qildi. Biroq hukumat tomonidan amalga oshirilgan siyosat kutilgan natijalarni bermadi. Ana shunday sharoitda iqtisodiy muammolar bilan hisoblashishga majbur bo'lgan Mitteran o'zining iqtisodiy siyosatini keskin o'zgartirdi. "so'llar tajribasi" amalda to'xtatildi. Mamlakatda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini oldindan ko'ra bilagan hukumat moliya vaziri J.Dilor tashabbusi bilan "Qa'iy iqtisodiyot" rejasini tayyorlay boshladi. Bu reja yangi devalvatsiya, narx- navo va oylik maoshlarning muzlatilishi, buyudjet vositalari chiqimlari va kreditga ta'qiqlar qo'yilishi bilan belgilandi.

---

<sup>36</sup> Западная Европа 80 х годов. М. 1988. С. 245.

Mitteran tomonidan belgilab berilgan yangi yo'nalish uning dastlabki etti yillik prezidentligi davridagi burilish nuqtasi bo'ldi. Biroq sotsialistik partiya ichida ham prezident harakatlarini tanqid qiluvchi kishilar ham yo'q emas edi. 1984 yilning 17 iyulida P.Morua iste'fo berdi. Yangi bosh vazir etib respublikachilar Frantsiyasi tarixida eng yosh sanalgan 37 yoshli sanoat va ilmiy tadqiqotlar vaziri L.Fabius tayinlandi. Bu shaxs xalq orasida "O'z yuragini so'llarga taqdim qilgan kapitalist" sifatida shuhrat qozongan edi<sup>37</sup>. FSPning turli oqimlari vakillaridan tashkil topgan yangi hukumatda asosiy vazirlik mansablarini "Qat'iy iqtisodiyot" siyosatini davom ettirayotgan va prezidentga sodiq bo'lgan kishilar egalladi.

Mitteran yosh Fabiusni bu lavozimga tayinlash orqali jamoatchilik fikrida o'ziga xos psixologik shok holatini yuzaga keltirish va bo'lajak parlament saylovlari oldidan siyosiy doiralardagi bahs munozaralarni boshqa yo'nalishga o'tkazib yuborishni mo'ljalladi. Ammo prezident hisob-kitoblari u qadar o'zini oqlamadi. 1989 yilning 16 martida Milliy majlisga bo'lgan navbatdagi saylovlarda niogalistlarning respublikani qo'llab quvvatlash birlashmasi (OPR) hamda frantsuz demokratiyasi uchun ittifoq (SFD) nomi ostida ma'lum bo'lgan o'ng markazchilar bloki bir biri bilan kelishgan holda hukumat bitimini imzoladilar va shu yo'l bilan parlamentda ko'pchilik mandatga ega chiqdilar. Fabius istefosini qabul qilgan Mitteran OPR lideri Jak SHirakka yangi hukumatni shakllantirish vazivasini topshirdi.

Beshinchi Respublika tartiboti o'rnatilgandan keyin ilk marotaba Frantsiyada prezident va u tomonidan tayinlanadigan hukumat qarashlari bir-biriga muvofiq kelmaydigan vaziyat yuzaga kelgan edi. 1986 yilning 2 aprelida Milliy majlis va Senatning o'tkazilgan saylovlardan keyingi 1 sessiyasi ochilishi munosabati bilan unga o'zining an'anaviy murojatini yo'llagan Mitteran keyingi yillarda mamlakat ravnaqi uchun va siyosiy hokimiyatni mustahkamlash, uning

---

<sup>37</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 66.

barcha davlat tuzilmalarida tenglikni saqlab turish yo'lida o'ziga bildirilgan ishonchni oqlajagini ma'lum qildi<sup>38</sup>.

O'z nabatida Mitteran parlament muxolifati bilan birgalikda konstitutsiyaga tayangan holda va qonun doirasida uning nazarida 1986 yilgacha amalga oshirilgan tadbirlarni yo'q qilish istagida bo'lgan o'nglar hukumati hattiharakatlarini jilovlashga urindi. J.SHirak hukumati bilan kelishmovchilikka bormaslik uchun, Mitteran SHirak bilan hamkorlik o'rnatilgan dastlabki kezlardayoq o'zining tashqi siyosat va milliy mudofa masalalari bo'yicha qarashlaridan yangi hukumat rahbarlarini boxabar etdi. U Frantsiya davlat organlari tizimida mavjud bo'lmasada bosh vazirning vitse- prezident rovida uning faoliyatiga aralashishi va de-fakto sifatida chiqish qilishiga chidab turolmasdi.

Qonun doirasida o'nglarni o'z nazorati ostida tutib turishga harakat qilgan Mitteran o'ziga tegishli vakolatlardan foydalangan holda o'nglar bilan birgalikdagi faoliyati uzilib qolmasligi uchun harakat qildi. Shunday holat yuz beradigan bo'lsa bu eng avvalo unga nisbatan munosabatlarning salbiy tomonga o'zgarishiga va prezident sifatidagi obrusi tushib ketishiga olib kelishini u yaxshi tushunardi.

Navbatdagi prezidentlik saylovlari arafasida Mitteranning obro'si o'zining yuqori cho'qqisiga etdi. U ilk prezident sotsialist sifatida Frantsiya tarixida muhim rol o'ynadi, deya ovoza qilishdi mamlakatning turli burchaklarida unga xayrihoh doiralar. Siyosiy o'yinlardan yaxshi boxabar bo'lgan Mitteran o'zi tomonidan qabul qilingan qarorni e'lon qilishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yishni istamadi. 1988 yilning 22 martida saylovlarga bir oy qolganda u o'z nomzodini qo'yajagini ma'lum qildi. Bunda Mitteran nafaqat FSP, balki markazchilarning ham qo'llab quvvatlashiga ishongan va o'zining saylovlarda g'olib bo'lishiga shubha qilmasdi.

Saylovoldi kurashlari davomida Mitteran va FSP birgalikda harakat qilish rejasini ishlab chiqishdi. Sotsialistlar tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy

---

<sup>38</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 66.

platformada ularning saylovoldi targ'ibotlari o'z aksini topdi. FSPning bosh maqsadi Mitteranning qayta saylanishiga erishish edi, chunki partiya o'z kelajagini Mitteran bilan bevosita bog'liq, deb hisoblardi. O'z navbatida Mitteran esa bu tadbirlar doirasida o'zining siyosiy partiyaga bog'liqligini har qanday yo'l bilan bo'lsada, yashirishga urinar va 1981 yildagi prezidentlik saylovlari oldidan saylovchilar oldida bergan va'dalar singari bu daf'a ham va'dalar berishni istamasdi. Shu sababdan, 1988 yilgi prezidentlik saylovlari oldidan u "Barcha frantsuzlarga murojaat" nomli chaqirig'ini e'lon qildi va bu murojaatnomada mamlakatning asosiy muammolarini hal qilishda u tomonidan ilgari surilayotgan tadbirlar rejasini qisqa bayon etishni lozim topdi. Aholining barcha kategoriyalariga murojaat qilgan Mitteran o'z qarashlarini himoya qilishda ular Mitteranga tayanishlari mumkinligini tushuntirishga harakat qildi. Bu safargi saylovkompaniyasi davomida Mitteran moliyaviy masalalarda kamchiqim bo'lishni yoqladi va bu uning raqiblarini qiyin ahvolga solib qo'ydi.

1988 yilning 24 aprelidan 8 mayiga qadar Mitteranning Elesey sarlyiga "Tarixiy yurishi" amalga oshdi beshinchi Respublika asoschisi de Golldan keyin hech qaysi prezident Mitteran singari bunday g'alabani qo'lga kiritgan olmagan edi: saylovchilarning 16,7 mlni Mitteranni yoqlab ovoz berdilar, biroq 54,1 % ovoz olishga muvaffaq bo'lgan prezident Frantsiya ijtimoiy hayotida so'l tomonga burilish yuz berishini anglatmasdi. Saylovlarning ikkinchi turida FKP tarafdorlarining salmoqli qismi Frantsiyaning eng yaxshi iqtisodchisi R.Bar va o'ta o'nglar lideri Le Pen tarafida turganlar Mitteranni yoqlab ovoz berishdi. endi Mitteran oldida og'ir vazifa turardi: bu FSP va uning ittifoqchilari safidan yangi hukumatni tashkil qilish va shu yo'l bilan ayrim markazchilar guruhlariga imkoniyat yaratib berish ko'zda tutildi. Shu maqsadda hech bir chekinishlarsiz 10 mayda u marazchilar orasida pragmatik deya tariflangan o'ng sotsialistlar lideri M.Rokarni bosh vazir etib tayinladi va unga "Siyosiy ochiq" kabinetni tashkil qilish huquqini berdi.

1988 yilning 5-12 iyunida muddatidan oldingi parlament saylovlari bo'lib, bu safar FSP eng yaxshi natijalarni qo'lga kiritdi. erkin harakat qilish imkoniga ega bo'lgan Mitteran o'z e'tiborini FSP taqdiriga qaratdi. Bu vaqtda partiya ichida unga liderlik borasida fraktsiyalararo kurashlar ketayotgan bo'lib, bu lider 1995 yildagi prezident saylovlarida o'z nomzodini qo'yish huquqiga ega bo'lishi lozim edi. 1988 yilning iyunidan Milliy majlis raisi bo'lgan L.Fabius nomzodini hukumron partiya va davlat lavozimlariga taqdim qilgan Mitteran FSPning qachonlardir unga raqib bo'lgan M.Rokar qo'lga tushishini istamasdi. 1992 yil 8 yanvarda Fabius FSPning birinchi kotibi etib saylandi. Shunday bo'lsada ma'lum bir sharoit yuzaga kelgan chog'da Mitteran Rokarning milliy ko'lamda liderlik rolini o'ynashi mumkinligini ham chetda qoldirmaydi va bu 1993 yilgi parlament saylovlarida sotsialistlar yana g'alaba qozonadigan bo'lsa bu sodir bo'lishi ehtimoldan holi emas<sup>39</sup>.

Qariyb 1 oy davom etgan bahs munozaralardan so'ng FSP Boshqaruv qumitasi "Frantsiya va sotsializm uchun yangi ufqlar" dasturi loyihasini qo'llab quvvatladi, 1991 yilning 13-15 dekabrda Parijda bo'lib o'tgan partiyaning favqulodda se'zdi chog'ida loyihani qabul qildilar. Ichki siyosiy va xalqaro vaziyatni tahlil qilish asnosida sotsialistlarsovetlar qayta qurishi va Germaniyaning birlashtirilishi Yevropa siyosiy xaritasiga qat'iy o'zgartirish kiritgan ekan sotsializm ham bu davr talablariga mos javob bera oladi, degan xulosaga kelishdi<sup>40</sup>.

70-yillarda Frantsiyaning iqtisodiy ahvoli asosiy statistik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, ishlab chiqarish va savdodagi mamlakat ulushi stabil holatda bo'lib, radikal o'zgarishlarga uchramagan edi. Mamlakat kapitalistik dunyoda iqtisodiy munosabatlar bo'yicha kuchli beshlik qatoriga kirdi va G'arbiy Yevropa davlatlari orasida GFRdan so'ng ikkinchi o'rinni egalladi<sup>41</sup>.

---

<sup>39</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 70.

<sup>40</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 66.

<sup>41</sup> Славенов В.П. Очерки внешней политики Франции (1961-1986). М., "Международные отношения", 1986, С. 29.

80-yillar boshida kapitalistik davlatlarda iqtisodiy vaziyat keskinlashdi, bu o'z navbatida Frantsiya iqtisodiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. 1981-1982 yillarda dollar kursining oshishi Frantsiyada savdo taqchilligini yuzaga keltirdi va bu ko'rsatkich 65 mlrd. frankni tashkil etdi. 1982 yilda esa 92 mlrd.ga etdi. Mamlakatning to'lov balansi keskin yomonlashdi, frankning mo'tadil qiymatiga jiddiy putur etdi. Inqiroz ishsizlik ko'rsatkichining yuqoriligi va keng iste'mol mollari baxosi keskin o'sishi munosabati bilan ko'pgina ijtimoiy muammolarni yuzaga chiqardi.

80-yillar boshlarida ishlab chiqarish tuzilmasini qayta qurish nafaqat milliyashtirilgan sektorga, balki yangi texnologiyalar asosida o'z ishlab chiqarishini yo'lga qo'ygan u qadar katta bo'lmagan xususiy korxonalarni qurishga ham tayanardi. Ularni moliyaviy ta'minlash va mazkur korxonalar yuzasidan paydo bo'lgan har qanday xolatga javobgarlikni milliyashtirilgan banklar o'z zimmalariga olishlari lozim edi.

Liberal islohotlarning so'nggisida iqtisodiy faoliyatning turli sohalarini qayta izga solish edi. 1987 yilning boshidan e'tiboran sanoatga ixtisoslashgan barcha korxonalar va xizmat ko'rsatish muassasalari bozor sharoitidan kelib chiqqan holda, o'z mahsulotiga narx belgilashda mustaqillikni qo'lga kiritdi.

Qisqa muddatlar ichida Mitteran hukumati 30 ga yaqin yangi qonun loyihalarini tayyorladi. Bu tadbirlar 80 yillarning 2-yarmida Frantsiya iqtisodiyotini yuqori ko'rsatkichlarga ko'tarishi belgilandi. 1986-1989 yillarda, darhaqiqat, mamlakatda iqtisodiy yuksalish kuzatildi. Yalpi ichki mahsulotning yillik aylanmasi o'rta hisobda 3% ga yuqorilagan bo'lsa, sanoat ishlab chiqarish hajmi 4% ga usdi.

Ammo 90-yillar boshiga kelib iqtisodiy o'sish omillari o'zini oqlay olmay qoldi. 1990 yilning bahoridayoq o'sish sur'atining sekinlashishidagi dastlabki belgilar kuzatildi. Korxonalar investitsiya talabining keskin qisqarishi, aholi shaxsiy iste'mol mollariga talabning o'sish sur'atining pasayishi va Yevropa davlatlariga eksportining keskin kamayishi sababli iqtisodiy inqiroz 1992 yilning

bahorida yanada kuchaydi. Shu yilning kuzida mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat ayrim eksport qiluvchi mahsulotlarga dunyo narxining pasaytirilishi sababli yana keskinlashdi. Faqat 1993 yilning oxiridan iqtisodiy vaziyat yaxshilana bordi. Mitteran hukumati iqtisodiy hayotni jonlantirish maqsadida keng mazmundagi dastur qabul qildi. Ushbu dasturga muvofiq, ijtimoiy ishlarni kengaytirish, uy-joy qurilishiga keng yo'l ochib berish, ishsizlik ko'rsatkichini minimum darajaga tushirish va ishlab chiqarishda o'sish sur'atlarini stimullashtirishga keng e'tibor qaratildi. Natijada, 1995 yilga kelib yalpi ichki mahsulot, shaxsiy iste'mol mollari ishlab chiqarish va kapital qo'shish sur'atlari jadallik bilan rivojlana boshladi, ish o'rinlari soni ko'paydi, pulning qadirsizlanishi darajasi 1.8% ga qisqardi<sup>42</sup>.

Frantsiya iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan holatlardan biri uning Yevropa iqtisodiy hamjamiyati faoliyatidagi ishtiroki bilan belgilanadi.

Mazkur o'n yilliklarda olib borilgan kolonial siyosat, ayniqsa, Afrikadagi mustamlakachilik siyosati, milliy er tuzilmasining ulkan potentsiali xalqaro mehnat taqsimotidagi faol ishtiroki, xususan EIH va Yevropa qurilishi doirasidagi faoliyati Frantsuzlarga dunyo miqyosida eng yuqori hayot darajasini qurish imkonini berdi. O'tgan asrning 90-yillarida 9 ta frantsuz kompaniyasi dunyoning eng yirik 100 kompaniyasi safidan joy oldi, 25 nafar sanoat guruhlari qariyb 10 mlrd. dollar miqdorida savdo aylanmasiga ega bo'ldi.

---

<sup>42</sup> Экономика Франции и экономическая политика правительства // Коринф. 1997, №42. С. 35.

## 2.2. Mitteran prezidentligi davrida Frantsiya tashqi siyosati

Frantsuz jurnalistlaridan biri K. Ney shunday yozadi: “Beshinchi respublikaning barcha prezidentlari Elisey saroyiga kelgach, ularda Metternix sindromidan aziyat chekish boshlanadi. Ularda bitta intilish-tashqi siyosat bilan shug’ullanish istagi paydo bo’ladi. Bu Mitteranni ham chetlab o’tmadi”<sup>43</sup>. Garchi Mitteranni ko’pchilik “ichki siyosat kishisi”, deb bilsada, Elisey saroyiga qadam qo’ygan kezlardan oq, u o’zining To’rtinchi respublika davrida tashqi siyosat masalalari bilan shug’ullangan va ma’lum tajribaga ega bo’lgan davlat rahbari sifatida namoyon qilishga harakat qildi. Aynan To’rtinchi respublika faoliyat ko’rsatgan yillarda(1946-1958) frantsuz kolonial imperiyasi emirilishi jarayonida uning koklonializmga qarshi bildirgan fikrlari va mustamlaka masalalar bo’yicha to’plangan tashqi siyosatdagi bilimlar uning keyingi davrda YUDSR, Respublikachilar institutlari Konventi va FSPga rahbarlik qilgan chog’larida bu siyosiy partiyalarning tashqi siyosiy masalalar bo’yicha hujjatlarni tayyorlash ishlarida partiya a’zolari bilan birgalikda ishtirok etgan edi.

De Goll siyosatini doimiy tanqid qilib kelgan .Mitteran u tomonidan yuritilgan siyosat Frantsiya manfaatlariga xizmat qilganmi yoki yo’qmi, degan savolga o’z qarashlar borligini doimo ta’kidlab kelgan. Mitteran har doim uning yodida saqlanib qoladigan voqealardan biri 1948 yilda Gaagada bo’lib o’tgan xalqaro kongress chog’ida o’zining ishtirokchi bo’lganligi va dunyoning taniqli arboblardan U.CHerchill, K.Adenauer, P.Ramade, P.-A. Spaak, A. de Gasperi va boshqalarning urushdan keyingi davrda qonga botgan va holdan toygan Yevropani yarashtirishga urinishlarini ko’rib, qit’ani birlashtirish endilikda yangi avlod siyosatchilariga nasib etishini ta’kidlagan edi<sup>44</sup>.

Agar Frantsiyaning 50-yillardagi davlat arboblari G’arbiy Yevropani birlashtirishda ishtirokchi bo’lish ishtiyoqi bilan yongan va buni o’z qarashlarida doimiy ta’kidlab kelgan bo’lsalar, 1981 yilda Frantsiya prezidentiga aylangan Mitteran bu orzuni hayotga joriy etishga qaror qildi.

<sup>43</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 67.

<sup>44</sup> Ўша жойда.

YOshlik yillaridanoq sotsializmga munosabat masalasida o'z fikriga ega bo'lgan prezident Mitteran demokratik jamiyatda sotsialistik adolat va qonunlarga rioya etilishi lozim, degan xulosalarga keladi. Mitteran sotsializmning "sovet modelini" vulgar sotsialistik qarashlarga yo'g'rilganligi, bu mamlakatda inson huquqlari va erkinliklari himoyasining ta'minlanmaganligini ta'kidlagan holda tanqid qiladi. Shuningdek, Sovet davlatining Afg'onistonga qo'shin kiritishi, 80-yillarda Polshadagi voqealarga sovet rahbariyatining pozitsiyasi va yadroviy qurollanish borasida SSSR yuritgan siyosatni keskin qoralaydi. Ayniqsa, bu davlat uchun uning iqtisodiy potentsiali G'arbiy Yevropa davlatlari darajasiga erisha olmagan bir sharoitda yadroviy qurollanishga zo'r berayotgani Mitteranning jiddiy e'tiroziga sabab bo'lgan.

U bir necha marotaba ikkinchi jahon urushi yillarida bir-biriga ko'rsatgan yordami singari bu davrda ham Sovet-Frantsiya munosabatlarini yaxshilash borasida fikr bildirgan edi. Uning nazarida bu davlat Frantsiyaning Yevropa siyosatida muhim komponent vazifasini o'tasa, AQSH G'arbiy Yevropaning ittifoqchisi va xavfsizligi kafolatchisi bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lardi. Ammo Mitteranning bu so'zlarini har ikki tomon ham to'g'ri anglab etmadi: umuman olganda, prezidentning ko'p g'oyalarida sirlilik bordek, go'yo,- deb yozadi V.N.Vasyutinskiy<sup>45</sup>. Moskvada uni aksilkommunistik qarashlarga ega "super-atlantist", deb atagan bo'lsalar, Vashingtonda "kommunistlar vakili", deya baho berishdi<sup>46</sup>. 1974 yilgi prezidentlik saylovlari chog'ida Sovet matbuoti sahifalarida Mitteran nomini qoralashga moyil bir necha maqola chop qilindi, bu albatta, uning yurak tubida chuqur iz qoldirdi. Bu holat 1981 yilgi prezidentlik saylovlari davomida va u g'alaba qozongach ham kuzatildi. Shu sababdan o'zining dastlabki etti yillik prezidentligi davrida garchi iqtisodiy hamkorlik rishtalari uzilmagan bo'lsada, Sovet-frantsuz oliy darajadagi dialoglari muzlatildi.

Frantsuz diplomatiyasi SSSRda sodir bo'layotgan barcha voqea-hodisalarni diqqat bilan kuzatib bordi va vaziyat taqozosiga ko'ra, 1984 yilning 20-23

---

<sup>45</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 68.

<sup>46</sup> Киссинджер Г. Дипломатия. М.: Ладомир, 1997.С.127.

iyunida uning Moskvaga tashrifi amalga oshirildi. Prezident sharafiga yozilgan dasturxon atrofida u o'zining gumanistik qarashlari sabablari qatag'onga uchragan akademik A.D.Saxarov shahnini himoya qilib, o'z fikrini bildirishga jur`at eta oldi.

1985 yilning 13 martida Mitteran yana bir karra SSSRga rasmiy tashrif bilan ketishini ma`lum qildi, ammo bu safargi tashrif CHernenko vafoti munosabati bilan amalga oshirildi.

Frantsiya jamoatchiligi va dunyoning ko'pchilik siyosiy arboblari nazarida Mitteran 1988 yilda ikkinchi marotaba prezidentlik lavozimini egallagach Yevropada va dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni tezda mushohada qilish va zaruriy xulosalarni chiqarishga layoqatli davlat arbobi sifatida tasavvur uyg'otdi.

Shu yillarda Frantsiyaning Yevropa doirasidagi siyosatida ba`zi bir yangi qarashlar paydo bo'ladi. Bunga SHarqiy Yevropa mamlakatlarida sodir bo'lgan radikal o'zgarishlar, Germaniyaning birlashuvi va qurollanish masalasida ayrim cheklovlarning joriy etilishi va qurollanish poygasining keskin qisqarishi o'z ta`sirini ko'rsatgani shubhasiz. Ana shunday sharoitda Mitteran "Yevropaning yangi me`morchiligini yaratish"da Sovet Ittifoqi bilan hamkorlik rishtalarini bog'lash kerak, degan xulosaga keldi. Ammo SSSRda sodir bo'layotgan dezintegratsion jarayonlarga prezident etarlicha baho bermadi, 1988-1991 yillar davomida u bir necha marotaba Moskva va Kievga rasmiy va qisqa ishchi tashrif bilan keldi, o'z navbatida Parijda M.S.Gorbachevni qabul qildi. 1990 yilning 28-29 oktyabr kunlari Sovet davlati prezidentining Frantsiyaga navbatdagi tashrifi chog'ida hamkorlik masalalari muhokama qilinib, bu borada shartnomaga imzo ham chekildi, ammo bu tarixiy hujjat tez orada frantsuz arxivlaridan joy oldi<sup>47</sup>.

1991 yilning avgustida Moskvadagi davlat to'ntarishiga urinish masalasida prezident 2 marotaba televidenie orqali chiqish qilib, B.N.Eltsin hatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlashini bildirdi, ammo bu so'zlar ko'pchilikda shubha uyg'otdi. Buning sababini 1991 yilning aprelida Rossiya parlamentining boshlig'i sifatida

---

<sup>47</sup> Горбачев М.С. Размышления о прошлом и будущем. М.: "Терра", 1998.С.62.

B.N.Eltsinning Frantsiyaga rasmiy tashrifi chog'ida frantsuz tomonining sovet delegatsiyasiga etarlicha ehtirom ko'rsatmaganligi va hatto B.N.Eltsinga chiqish eshigini ko'rsatishgacha borganligi bilan izohlash mumkin<sup>48</sup>.

Sovet Ittifoqida vaziyat hali stabillashmasdan F.Mitteran prezident B.N.Eltsin bilan uchrashish istagida ekanligini bildirdi. 1992 yilning 5-7 fevralida Rossiya prezidentining Frantsiyaga birinchi rasmiy tashrifi amalga oshirildi, shu yo'l bilan ikki davlat o'rtasidagi tushunmovchiliklarga barham berishga harakat qilingan bo'lsa, o'z navbatida B.N.Eltsin endilikda Rossiya ham mustaqil ravishda o'z tashqi siyosatini belgilashini va amalga oshirish imkoniga ega ekanligini namoyon qila olishini ko'rsatishga urindi. Uchrashuvlar davomida, 7-fevralda ikki davlat rahbarlari Elisey saroyida Rossiya va Frantsiya o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik masalalari bo'yicha shartnomaga imzo chekishdi. Bu tashrifni har ikki tomon ma'juziy ma'noda Rossiya hukmdori Petr I ning Frantsiyaga birinchi rasmiy tashrifining 275 yilligi arafasida (1717 yilning 21 aprelidan 20 iyuniga qadar) amalga oshirilgan o'ziga xos diplomatik tashrif, deb baholashdi.

“Yagona Yevropa” qurish dasturini ilgari surgan Mitteranning tashqi siyosati Yevropa hamjamiyatiga kirgan mamlakatlarni valyuta-iqtisodiy va siyosiy ittifoqini qo'llab-quvvatlash bilan belgilandi. Integratsion jarayonlarning SHarq va G'arb Yevropa konfederatsiyasi misolida tashkil etilishini yoqladi. Mitteran nafaqat AQSH, GFR va SSSR bilan balki “Uchinchi dunyo” mamlakatlari bilan hamkorlik a'loqalarini yo'lga qo'yishga intildi<sup>49</sup>.

1990-1991 yillarda BMT bilan ittifoqchilikda Fors qo'ltig'idagi urushni yoqlab chiqdi.

Yevropa miqyosida Mitteran Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining xalqaro miqyosdagi rolini oshirish hamda Ispaniya va Portugaliyaning EHT a'ziligiga qabul qilinishini yoqladi<sup>50</sup>. 1986 yilning fevralida u yagona Yevropa qonunining

---

<sup>48</sup> Васютинский В.Н. Франсуа Миттеран...С. 70.

<sup>49</sup> Век XX: Политика Люди Судьбы. Под общей ред. Ш.Эргашева. Ташкент, «Шарк»,2007. С.179.

<sup>50</sup> Системная история международных отношений. В двух томах. Под ред. А.Д.Богатурова М.2006.Т.2.С.207.

kuchga kirishiga yordam berdi. Gelmüt Kol bilan o'tkazilgan muzokaralardan so'ng Frantsiya-Germaniya munosabatlarining iliqlashuvi 1992 yilning 7 yanvarida ikki tomonlama hamkorlikning Maastrixtda shartnoma asosida yanada mustahkamlanishini ta'minladi.

1989 yilda Berlin devorining qulashi munosabati bilan 90 yilning iyunida La Bolda chiqish qilgan Mitteran sobiq frantsuz koloniyalariga demokratik tartibotni qaror toptirishda yordam berish kerakligi haqida so'zladi. Shu bilan birga SFAning frankni devalvatsiya qilishiga qarshi nutq so'zladi<sup>51</sup>.

---

<sup>51</sup> Франсуа Миттеран // [www.famouspeoples.net](http://www.famouspeoples.net).14.03.2012.

### **2.3. O'zbekiston Frantsiya munosabatlari**

Frantsiya iqtisodiy qudrati va siyosiy mavqeyi jihatidan Yevropadagina emas balki dunyoda ham oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Buyuk daholari ijodi bilan jahon madaniyatini boyitgan yurt ayni zamonda yuksak darajada rivojlangan texnologiyalar vatani sifatida ham dovrug' qozonayotganligi tufayli Frantsiyaning jahondagi mavqeyi barqarorligichyaa qolmoqda.

Qariyb 60 mln. aholiga ega bo'lgan Frantsiya 1993 yil aprel oyida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Milliy kengashga saylov natijasida 1981 yildan buyon mamlakatni boshqarib kelayotgan sotsialistlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi. endilikda respublikani quvvatlovchi neogolistlar o'ng kuchlar bilan mamlakat taraqqiyotini belgilab berishda siyosat maydoniga chiqib keldilar. 1986-1988 yillarda sotsialist Mitteranning o'ng kuchlar bilan mamlakatni birgalashib boshqarishi mamlakat siyosiy hayotiga putur etkazmagan edi. Faqat 90 yillar boshida jahon iqtisodiyoti og'ir davrni boshdan kechtrayotgan bir pallada Mitteran hukumati iqtisodiy qiyinchiliklardan tezroq chiqib ketish uchun boshqa malakatlar bilan hamkorlik ishtalarini yanada mustahkam bog'lashga harakat qilgan edi. Shu jumladan 1991 yilning 1 sentyabrida o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan va jahon siyosiy xaritasida yangi demokratik respublikalar safida nomi qayd etilgan respublikamiz bilan Frantsiyaning o'zaro do'stlik va hamkorlik aloqalari mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq do'stona va iliq ko'rinish oldi.

Frantsiya Markaziy Osiyoda shakllangan yangi mustaqil davlatlar orasida O'zbekistonga xo'irj sarmoyasining kiirtilishi uchun zarur sharoitlar yaratilganligi sababli O'zbekistonga alohida qiziqish bilan qaray boshlagan, yurtimizdagi barqaror siyosiy vaziyat va boy iqtisodiy imkoniyatlar o'zaro hamkorlikka zamin yaratgan edi.

Yurtimizga amaliy taklif bilan tashrif buyurgan frantsuz kompaniyalaridan biri "Sosete Nasonal elf akiten" davlat kompaniyasi mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O'zbekiston bilan hamkorlik bitimini tuzdi. Shguningdek Frantsiya

rahbariyatining O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida tan olishi va O'zbekistonda Frantsiya elchixonasining ochilishi bunday ishonchli hamkorlar sonining yana bittaga oshishi bilan belgilanadi. Bu yillarda Frantsiyalik ishbiarmonlar aloqa vositalari, sado ko'lamini kengaytirish vama'daniy jabhalarda aloqalarni kengaytirish uchun ikki tomonlama o'zaro ishonchga asoslangan aloqalarga keng yo'l ochib berildi. Frantsiya savdo – sanoat palatasi vakillarining va frantsuz ishbiarmonlarining 1993 yil iyun oyida mamlakatimizga tashrifi chog'ida hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan fikrlashib olindi. Ana shu maqsadda o'zbek-frantsuz ishbiarmonlari anjumani o'tkazildi<sup>52</sup>.

1993 yilning 27-30 oktyabr kunlari davlatimiz rahbari Islom Karimov Frantsiyaga rasmiy tashrif buyurdi. Ushbu tashrif chog'ida Frantsiya prezidenti Mitteran va bosh vazir e. Balladyur I.Karimov bilan Elisey saroyida suhbat uyushtirib, Prezidentimiz Yangi Yevropaning Parij xartiyasiga imzo chekdi. Bu O'zbekistonning Yevropada havfsizlik va hamkorlik kengashiga qo'shilganini bildiradi. Suhbat davomida jumladan F.Mitteran O'zbekiston haqida quyidagi fikrlarni aytib o'tdi. "Qadimiy madaniyat va tarixga ega bo'lgan O'zbekiston jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan bu mamlakat bilan munosabatlarni rivojlantirishga Frantsiya katta ahamiyat bermoqda"<sup>53</sup>.

Bundan tashqari ushbu uchrashuv davomida tashqi ishlar vaziri A.Juppe bilan suhbat chog'ida Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash muammolari, Tojikiston va Afg'onistondagi ahvol borasida ham suhbatlar o'tkazildi. O'zbekiston Prezidentining jo'rnalistlar bilan bo'lgan suhbatlari Frantsiyadagi etakchi banklardan biri "Kredi Komersyal de frans" banki qarorgohida muddaolar haqidagi bitim imzolanganidan so'ng bo'lib o'tdi. Bu bitimda mazkur bankning Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurish loyihasini pul bilan ta'minlashi, zavodni esa Frantsiyadagi "Teknip" firmasi qurishi belgilandi<sup>54</sup>.

---

<sup>52</sup> Амиркул Карим. Европадаги ишончли ҳамкор // Халқ сўзи, 1993, 26 октябр сони 1 бет.

<sup>53</sup> Халқ сўзи газетаси 1993, 30 октябр сони. 1 бет.

<sup>54</sup> Халқ сўзи газетаси 1993, 30 октябр сони. 1 бет.

Ushbu uchrashuv chog'ida F.Mitteran 3-4 oydan so'ng O'zbekistonga javob uchrashuvini amalga oshirishini vada bergan edi. Shunga ko'ra 1994 yilning 26-28 aprel kunlari F.Mitteran va uning rafiqasi D.Mitteran xonim O'zbekiston rahbariyati tomonidan samimiy qabul qilindi. Uchrashuvlar chog'ida ikki davlat rahbari Xorazm va Samarqandga tashrif buyurib bu erdagi me'moriy inshootlarni ziyorat qilgan va jurnalistlar bilan suhbatini bo'lib o'tgan edi. Jumladan Xorazm safari vaqtida Frantsiya rahbari "Biz O'zbekistonga bunyodkorlik niyatida keldik" dedi. Prezidentlar ikki buyuk xalq do'stligining kelajagi porloq ekanligini ta'kidladilar<sup>55</sup>.

Ushbu uchrashuv chog'ida o'tkazilgan muzokaralar yakunida ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik, O'zbekiston Respublikasi bilan Frantsiya Respublikasi o'rtasida fuqarolarning erkin harakati haqidagi bitimlar, havo transporti sohasida hamkorlik to'g'risida qo'shma deklaratsiya imzolandi. Muzokarlarda Frantsiya hukumati rasmiy vakili, byudjet vaziri N.Sarkozi, Yevropa ishlari bo'yicha delegat-vazir A.Lamassur, Milliy majlis deputati parlamentdagi Frantsuz-O'zbek do'stligi guruhining prezidenti SH.Gerbrant va boshqalar ishtirok etdilar<sup>56</sup>.

Ushbu safar chog'ida frantsuz rahbariyati O'zbekiston Prezidentining 1993 yil oktyabridagi Frantsiyaga rasmiy tashrifi chog'ida imzolangan shartnomalar asosida o'zaro hamkorlik rishtalarini yanada kengaytirish yuzasidan bir qator amaliy takliflarni ilgari surdilar. Shunga ko'ra 26 aprelda Frantsiyaning "Aktini internacional" kompaniyasining xalqaro masalalar bo'yicha direktori O.Allera "O'zqushtsutsanoat" DAU va "O'zmevasabzavotuzumsanoat" davlat kopirativ kontserini vakillari bilan uchrashib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida yaqindan hamkorlik qilish. Bu tarmoqlarni Frantsiyaning ilg'or texnologiyasi bilan ta'minlash masalasi muhokama qilindi.

---

<sup>55</sup> Халқ сўзи газетаси 1994, 27 апрел сони. 1 бет.

<sup>56</sup> Носир Муҳаммад ва бошқалар. Франция Президентининг мамлакатимизга давлат ташрифи давом этмоқда // Халқ сўзи газетаси 1994, 27 апрел сони 1 бет.

SHu kuni Frantsiya ishbiarmonlari “O’zbekneftgaz” milliy korporatsiyasi, O’zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki, “O’zbekiston havo yo’llari” milliy aviakompaniyasi, O’zbek engil sanoat davlat uyushmasi va boshqa bir qancha tashkilotlar vakillari bilan ham muzokaralar o’tkazdilar. Toshkentda xalqaro aeroport, Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurish to’g’risidagi masalalar muhokama qilindi. Bundan tashqari bank tizimidagi aloqalarni yangi pog’onaga ko’tarish, to’qimachilik korxonalarini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, suv xo’jaligi va savdo sohasida hamkorlik borasida ham kelishib olindi<sup>57</sup>.

Mitteran prezidentligi yillarida Frantsiyadek qudratli, taraqqiy etgan davlat O’zbekiston bilan madaniy jabhalarda ham keng aloqalarni yo’lga qo’ydi. Jumladan 1993 yilgi yurtboshimizning Frantsiyaga tashrifi chog’ida mazkur sohani ham rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan edi. Shunga ko’ra ushbu yillarda frantsuz dramaturgi Fotima Galerning “Malika” asari sahnaga qo’yildi. A.Hidoyatov nomidagi teatr binosida frantsuz suratchisi Klod Gafnerning suratlar ko’rgazmasi ochildi. Bu tadbirlarga qadar Respublikamiz miqiyosida frantsuz filmlari festevali o’tkazilgan, Frantsiya matbuot ko’rgazmasi uyushtirilgan edi<sup>58</sup>.

Javob uchrashuvi chog’ida Frantsiya delegatsiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat katta akademik teatri, amaliy san’at muzeyiga tashrif buyurdilar.

1994 yil O’zbekistonda “Mirzo Ulug’bek yili” davlat dasturi doirasida Mirzo Ulug’bekning 600 yilligi munosabati bilan YUNESKONing Parijdagi qarorgohida Ulug’bek haftaligi o’tkazildi. Shubhasiz bu tadbirlar boshida ikki davlat rahbarlari turishdi. Bunday hamkorlik rishtalari bundan 6 asr muqaddam buyuk davlat arbobi Amir Temur va Frantsiya qirolu Karl VI o’rtasida ham hamkorlik rishtalari bog’langan edi<sup>59</sup>.

---

<sup>57</sup> Hamkorlik yana rivojlanadi // Xalq s’zi gazetasi 1994, 28 aprel soni. 1 bet.

<sup>58</sup> Amirkuil Karim. Evropadagi ishonchli hamkor // Xalq s’zi, 1993, 26 oktyabr soni 1 bet.

<sup>59</sup> Xazratkuilov M. Bobolarmiz orzu qilgan d’stlik // Xalq s’zi. 1994 8 noyabr.

## XULOSA

Parijdan ancha olisda bo'lmish Jarnak shaharchasida tug'ilib o'sgan Mitteran o'zini tanibdiki o'zligini xalqqa, yurtining ravnaqiga ezgulikka bag'ishladi. Parij universitetida o'qib yurgan kezlaridayoq xayriya tashkiloti tuzib, kambag'allar, qarovsiz qolgan nogironlarning xizmatini qildi. Ikkinchi jahon urushi boshlangach qo'liga qurol olib jang maydoniga otlandi, yaralandi. Asirga tushgach 18 oy kontslagerlarda azob chekdi. Ikki marta qochishga urindi va nihoyat uchinchi urinishdan so'ng vataniga kelib, frantsuz Qarshilik harakatining eng faol a'zosiga aylandi. Morlandan gistapochilar olovdan cho'chiganday cho'chishar, uni qayta ushlab uchun ko'p bor urinishgan.

Ikkinchi jahon urushi tugugach Germaniyaga haydab ketilgan 1,5 million frantsuz jangchilari uylariga qaytishgach, urush faxriylariga ko'mak fondida mehnat qilayotgan Mitteran bu asirlarning yaqin ko'makchisiga aylandi va 1947-1948 yillarda shu masala bo'yicha vazirlik kursisini egalladi. Bundan tashqari 1957 yilga qadar Mitteran vazirlar kengashi raisi huzuridagi davlat kotibi, dengiz orti hududlar bo'yicha vazir, Yevropa kengashi ishlari bo'yicha, ichki ishlar va adliya vazirlari lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1958 yilda beshinchi respublika tashkil topgach Mitteran de Gollning yangi tartiboti va konstitutsiyaga keskin qarshi chiqdi. Shu yillar mobaynida dastlab de Goll keyin esa Jiskar de esten bilan olib borgan prezidentlik uchun kurash unga mag'lubiyat keltirgan bo'lsada, 1981-1995 yillar davomida ikki marta shu lavozimga tayinlanib Frantsiyaning uzoq muddat hukmronlik qilgan davlat arboblardan biriga aylandi. Uning prezidentlik yillari sof madaniy siyosat, iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotda muhim o'zgarishlar bilan belgilandi. Aynan uning prezidentlik yillarida Frantsiyada o'lim jazosi bekor qilindi, nafaqa yoshi qisqartirildi, madaniy jabhada katta Luvr saroyi qayta tiklanib, Bastiliya maydonidagi opera binosi, milliy kutubxonaning yangi kompleksi qurib foydalanishga topshirildi.

“Yagona Yevropa” qurish dasturini ilgari surgan Mitteranning tashqi siyosati Yevropa hamjamiyatiga kirgan mamlakatlarni valyuta-iqtisodiy va siyosiy ittifoqini qo’llab-quvvatlash bilan belgilandi. Integratsion jarayonlarning SHarq va G’arb Yevropa konfederatsiyasi misolida tashkil etilishini yoqladi. Mitteran nafaqat AQSH, GFR va SSSR bilan balki “Uchinchi dunyo” mamlakatlari bilan hamkorlik a’loqalarini yo’lga qo’yishga intildi. 1990-1991 yillarda BMT bilan ittifoqchilikda Fors qo’ltig’idagi urushni yoqlab chiqdi.

Yevropa miqiyosida Mitteran Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining xalqaro miqiyosdagi rolini oshirish hamda Ispaniya va Portugaliyaning EHT a’ziligiga qabul qilinishini yoqladi. 1986 yilning fevralida u yagona Yevropa qonunining kuchga kirishiga yordam berdi. Gelmut Kol bilan o’tkazilgan muzokaralardan so’ng Frantsiya-Germaniya munosabatlarining iliqlashuvi 1992 yilning 7 yanvarida ikki tomonlama hamkorlikning Maastrixtda shartnoma asosida yanada mustahkamlanishini ta’minladi.

1989 yilda Berlin devorining qulashi munosabati bilan 90 yilning iyunida La Bolda chiqish qilgan Mitteran sobiq frantsuz koloniyalariga demokratik tartibotni qaror toptirishda yordam berish kerakligi haqida so’zladi. Shu bilan birga SFAning frankni devalvatsiya qilishiga qarshi nutq so’zladi.

Fransua Mitteran serdo’stligi bilan ajralib turdi, uning do’stlari orasida nafaqat yirik shaxslar, balki oddiy odamlar ham ko’pchilikni tashkil etgan. Qoida bo’yicha prezidentlar oilasi bilan Elisey saroyida yashashi lozim ammo Mitteran Sena daryosidan uncha uzoq bo’lmagan kichik bir ko’chadagi bir vaqtlar gonorari evaziga sotib olingan o’z shaxsiy uyida yashaydi va qo’shnilari bo’lmish frantsuz millati vakillari bilan suhbatlashib turgan.

Fransua Mitteran siyosiy hayotdagi o’yinlar, hayotning past balandliklariga matonat bilan dosh berdiyu, ammo uni kun sayin enggan kasallik tufayli 1996 yilning 8 yanvarida Parijda vafot etdi.

Shu o'rinda Prezidentimizning u to'g'risida aytgan fikrlarini eslash lozim: "Siz daraxtlarni yaxshi bilishingizdan xabarim bor, bu sizning buyuk afzalligingizdir, xalqlarimiz do'stlik nihollarini o'tqazgan edilar, biz imzolagan ikki tomonlama bitimlar shu nihollarning shoxlaridir. Siz kabi biz ham ana shu nihollar o'sib, do'stligu hamkorlikning mustahkam va sermeva daraxtlariga aylanishini istaymiz...".

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1995 yil 23 fevral// Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. III jild. T., «O'zbekiston», 1996.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. «O'zbekiston», 1998.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. T. «Ma'naviyat», 2008.
4. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi// «Xalq so'zi» gazetasi, 2010 yil 9-dekabr.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. «O'zbekiston», 2011.
6. Arzakanyan M.TS. De Goll i gollisti na puti k vlasti. M., «Visshaya shkola», 1990.
7. Vasyutinskiy V.N. Fransua Mitteran.-Voprosi istorii, 1993, № 1.
8. Vek XX: Politika Lyudi Sudbi. Pod obshey red. Sh.Ergasheva. Tashkent, «SHark», 2007.
9. Goll SH.de. Voennie memuari. Tom 1. Priziv. M., 1957.
10. Gorbachev M.S. Razmishleniya o proshlom i budushem. M.: «Terra», 1998.
11. Dobrinin A.F. Sugubo doveritelno. M.: «Avtor», 1997.
12. Zapadnaya Yevropa 80 x godov. M. 1988.
13. Kissindjer G. Diplomatiya. M.: Ladomir, 1997.
14. Koloskov I.A; TSirulnikov N.G. Narod Frantsii v borbe protiv fashizma. M., 1960.
15. Kravchenko E.A. Narodniy front vo Frantsii. M., 1972.
16. Novikov G.N. Gollizm posle de Gollya. Ideynaya i sotsialno- politicheskaya evolyutsiya 1969-1981 gg. M., «Nauka», 1984.

17. Sistemnaya istoriya mejdunarodnix otnosheniy. V dvux tomax. Pod red. A.D.Bogaturova M.2006.
18. Slavenov V.P. Ocherki vneshney politiki Frantsii (1961-1986). M., "Mejdunarodnie otnosheniya", 1986.
19. Smirnov V.P. Noveyshaya istoriya Frantsii. 1918-1975. M.: "Visshaya shkola", 1979.
20. Sovetsko-frantsuzskie otnosheniya vo vremya Velikoy Otechestvennoy voyni. 1941-1945 gg. M., 1959.

#### Davriy matbuot nashrlari

21. Amirqul Karim. Yevropadagi ishonchli hamkor // Xalq so'zi, 1993, 26 oktyabr soni.
22. Nosir Muhammad va boshqalar. Frantsiya Prezidentining mamlakatimizga davlat tashrifi davom etmoqda // Xalq so'zi gazetasi 1994, 27 aprel soni
23. Xalq so'zi gazetasi 1993, 30 oktyabr soni.
24. Xalq so'zi gazetasi 1994, 27 aprel soni.
25. Hamkorlik yanada rivojlanadi // Xalq so'zi gazetasi 1994, 28 aprel soni.
26. Hazratqulov M. Bobolarimiz orzu qilgan do'stlik // Xalq so'zi. 1994, 8 noyabr soni.
27. Ekonomika Frantsii i ekonomicheskaya politika pravitelstva// Korinf. 1997, №42.

#### Internet saytlari

28. [www.my-article.net](http://www.my-article.net).
29. [www.famouspeoples.net](http://www.famouspeoples.net).
30. [www.krugosvet.ru](http://www.krugosvet.ru).